

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 347.732

XUSANOV ROVSHAN RUSTAMOVICH

**SUG‘URTA SHARTNOMALARINI TUZISH VA UNI
BAJARISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

5A231201 – «Sug‘urta ishi»

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
D I S S E R T A S I Y A**

**Ilmiy rahbar:
i.f.n. Yuldashev O.T.**

Toshkent – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. SUG‘URTA SHARTNOMALARINI TUZISH VA UNI BAJARISH TARTIBINING NAZARIY ASOSLARI	
1.1. Sug‘urta shartnomasining mohiyati, turlari, shakllari va muhim shartlari.....	8
1.2. Yuridik shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug‘urta polislarini rasmiylashtirish tartibi.....	17
1.3. Jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug‘urta polislarini rasmiylashtirish tartibi.....	25
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	30
2-BOB. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTALOVCHI VA MIJOZ O‘RTASIDAGI SHARTNOMA MUNOSABATLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	
2.1. Sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi shartnoma munosabatlarini huquqiy tartibga solishning hozirgi holati	32
2.2. Sug‘urta da‘volari va ularning ko‘rib chiqilishi tahlili ("O‘zagrosug‘urta" DASK faoliyati misolida).....	39
2.3. Sug‘urta vositachilari, ularning sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni va faoliyati tahlili.....	40
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	51
3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY SUG‘URTA BOZORIDA SUG‘URTALOVCHI VA MIJOZ O‘RTASIDAGI SHARTNOMA MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	
3.1. Sug‘urta da‘volarni ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish.....	53
3.2. Milliy sug‘urta bozorida sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish yo‘nalishlari.....	61
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	70
XULOSA	72
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	76

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. “ Ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish joylarini shakllantirish va aholi bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonlari va sog’liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish doimo e’tiborimiz markazida bo’lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi.”¹. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini muayyan chora-tadbirlar yordamida oshirish asosida jamiyat a’zolarining turmush farovonligi darajasini ta’minlashdan zarur. Sug’urta munosabatlarini rivojlantirish asosida sug’urta bozorining ko’lamini kengaytirish ayni paytda dolzarbdir. So’nggi yillarda O’zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko’rsatkichlarini samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur. Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sug’urta sohasining o’rni va ahamiyati beqiyos. Shu bois, respublika hukumati tomonidan sug’urta munosabatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yangi sug’urta tashkilotlarining paydo bo’lishi, sug’urta tashkilotlarining uzoq qishloq joylarida o’z filial va bo’linmalarini ochilishi, buning isbotidir. Sug’urta bozoriga xizmatlar taklif etuvchi sug’urta kompaniyalari bo’yicha qonunchilikni tartibga solish va mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilib, bu boradagi chora-tadbirlar tobora chuqur ko’rinish olmoqda. Shuningdek, sug’urtalovchilar va sug’urtalanuvchilar o’rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish masalalari soha taraqqiyotiga oid eng muhim yo’nalish bo’lib qolmoqda. Sug’urta munosabatlarining to’g’ri olib borilishiga salbiy ta’sir etayotgan omillarni aniqlash, bartaraf etish va mijozlar ehtiyojiga mos holda sohani tashkil etish masalalarini o’rganish dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Karimov I.A. 2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi.//<http://www.lex.uz/news/144>

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. O'zbekiston milliy sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalarining faoliyati ilmiy tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Respublikamiz sug'urta sohasida sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish tartibini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlar yig'indisi tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi - iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish tartibini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- sug'urta shartnomalarining mohiyati, shakllari va muhim shartlari tadqiq etish;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polisini rasmiylashtirish tartibini ochib berish;
- sug'urta da'volarni ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- milliy sug'urta bozorida sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish tartibining nazariy asoslari yoritildi;
- yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polisini rasmiylashtirish tartibining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi;
- sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi shartnoma munosabatlarini huquqiy tartibga solishning hozirgi holatiga baho berildi;
- sug'urta vositachilari, ularning sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni va faoliyati tahlili qilindi.

- milliy sug'urta bozorida sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- sug'urta da'volarni ko'rib chiqish tartibini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi sug'urta bozorining rivojlanishi, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantirish, milliy sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ahvoli barqarorligini ta'minlash imkonini berishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Sug'urtaning nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar E.Krosita, A.Vagner, F.German, A.Aleksandrov, V.Belyx, I.Balabanov, A.Arhipov, B.Gomellya, D.Tulenty, N.Nikulina, S.Beryozina, B.Serbinovskiy, V.Garkusha, V.Ryabikina, YU.Axvlediani, V.SHaxovlar² tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda sug'urta munosabatlari va uni tartibga solish hamda sug'urta bozori rivojlanishining yo'nalishlari iqtisodchi olimlar M.Asqarova, H.Boev, T.Boymurotov, SH.Imomov, A.Nurullaev, Y.Tursunov, M.Xodjaeva, M.Mirsodiqov, A.Shermuxeimedov, G.Axunova, O.Jo'raev, X.SHennaev, R.Husanov, A.Yadgarovlarning³ ilmiy ishlarida tahlil qilingan. Biroq,

² Бельх В.С. Страхование право. - М.: Инфра-М, - 2001. - 205 с.; Балабанов И.Т. Риск-менеджмент. - М.: Финансы и статистика, -1996.-208 с.; Шахов В.В. Страхование. - М.: ЮНИТИ, -1999. - 150 с.; Рябикина В.И. Страхование. - М.: Экономист, -2006. - 120 с.; Архипов А.П., Гомелля В.Б., Туленты Д.С. Страхование:

современный курс.- М.: Финансы и статистика, - 2007. - 205 с.; Ахвледiani Ю.Т. Страхование. - М.: ЮНИТИ, 2006. - 215 с.; Никулина Н.Н., Берёзина С.В. Страхование.-М.:ЮНИТИ,-2003.-220 с.; Сербиновский Б.Ю., Гарькуша В.Н. Страхование дело.- Ростов-на-Дону: Феникс, - 2004.- 180 с.

³ Боев Х. Суғурталаш. - Тошкент: Адабиёт жамғармаси нашриёти, - 2005. - 75 б.; Хусанов Р.Х., Ядгаров А.А. Бозор иқтисодиёти шароитида суғурта тизими. - Тошкент: Янги аср авлоди, - 2005. - 79 б.; Шермухамедов А., Охунова Г., Жўраев О. Халқаро транспорт суғуртаси. - Т.: ТДИУ, -2000. - 84 б.; Шеннаев Х. Суғурта бозори нима? // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. -Тошкент, 1998. -№ 2.- Б. 10-11.; Асқарова М.Т. Развитие системы страхования в обеспечении экономического роста в условиях рыночных преобразований Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. Ташкент – 2003. - 21 с.; Боймуротов Т.М. Ўзбекистонда суғурта фаолияти ва уни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. - Тошкент – 2004. - 22 б.; Нуруллаев А.С. Ўзбекистонда фермер ва деҳқон хўжаликлари суғурталаш масалалари. Иқтисод фанлари номзоди

yuqoridagi olimlarning ilmiy asarlarida sug'urta shartnomalarini tuzish va uni bajarish bilan bog'liq holatlar yaxlit tarzda chuqur tahlil qilinmagan. SHu bois, ushbu mavzu tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi. Muammoning dolzarbligi va uning etarli darajada o'rganilmaganligi sug'urta munosabatlarini shartnomaviy tartibga solish bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan mavzuda alohida tadqiqot olib borishning zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiyada kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash va boshqa iqtisodiy-statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining xulosa va tavsiyalari O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, samaradorligini oshirish, sug'urta bozorini tartibga solishda, sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishida keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalarining faoliyatini takomillashtirishda, ushbu maqsadlar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada davom ettirishda, sug'urta bozorini va alohida sug'urta kompaniyalarini rivojlantirishda yo'riqnomalar va uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqishda qo'llash mumkin.

Tadqiqot materiallaridan barcha o'quv yurtlari va soha mutaxassisliklari uchun "Sug'urta bozori", "O'zbekiston sug'urta bozori", "Sug'urta marketingi" kabi fanlar o'quv dasturlarini takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya matni 80 betni tashkil etib, unda 5 ta jadval va 8 ta rasmdan foydalanilgan.

1-BOB. SUG'URTA SHARTNOMALARINI TUZISH VA UNI BAJARISH TARTIBINING NAZARIY ASOSLARI

1.1.Sug'urta shartnomasining mohiyati, turlari, shakllari va muhim shartlari

Sug'urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi hujjatdir. Shartnomada franshiza qo'llanilishi mumkin. Franshiza-yuridik shaxslar ko'rgan zararining muayyan qismi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo'lmaydi va u to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta qoplamasidan chegirib tashlanadi.

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalarida belgilab qo'yilishi mumkin. Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarning o'zi shartnoma bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi uchun majburiydir. Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin. Sug'urta qildiruvchi o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z-o'zidan haqiqiy emas:

- shartnoma tuzilayotgan paytda sug'urta ob'ekti mavjud bo'lmasa;
- jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan, jinoyat narsasi hisoblanuvchi yoki musodara qilinishi lozim bo'lgan mol-mulk mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalangan bo'lsa;

- shartnoma bo'yicha g'ayrihuquqiy manfaat sug'urtalangan bo'lsa;
- sug'urta shartnomasida sug'urta hodisasi sifatida yuz berishi ehtimolligi va tasodifiylik belgilari bo'lmagan voqea nazarda tutilgan bo'lsa.

Sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanishi. Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi. Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiriq etiladi.

Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta xavfining ortishi oqibatlarini. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum qilingan holatlarda yuz bergan, o'ziga ma'lum bo'lgan muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfining ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi shart. Sug'urta shartnomasida va sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida aytib qo'yilgan o'zgarishlar muhim deb hisoblanadi. Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli. Agar sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi shartnomani bekor qilishni talab etishga haqli. Sug'urtalovchi, agar sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar yo'qolgan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli emas.

Sug'urta shartnomasining muddatidan ilgari bekor bo'lishi. Sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi. Quyidagilar shunday holatlar jumlasiga kiradi:

- sug'urtalangan mol-mulkning yuz bergan sug'urta hodisasidan boshqa

sabablarga ko'ra nobud bo'lishi;

- tadbirkorlik xavfini yoki ana shu faoliyat bilan bog'liq fuqarolik javobgarlik xavfini sug'urtalagan shaxsning tadbirkorlik faolitini belgilangan tartibda to'xtatishi.

Sug'urta shartnomasi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha muddatidan oldin bekor bo'lganda, sug'urtalovchi sug'urta mukofotining bir qismini sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda olish huquqiga ega. Sug'urta qildiruvchi, agar voz kechish paytiga kelib sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoli ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yo'qolmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli. Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasidan muddatidan ilgari voz kechgan taqdirda, sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi. Qonunda ko'rsatilgan shaxslarga sug'urta qiluvchilar sifatida boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkini yoxud o'zining boshqa shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligini o'z hisobidan yoxud manfaatdor shaxslar hisobidan sug'urta qilish (majburiy sug'urta) majburiyati qonun bilan yuklangan hollarda sug'urta ushbu bobning qoidalariga muvofiq shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Majburiy sug'urtada sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchi bilan sug'urtaning ushbu turini tartibga soladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzishi shart.

Mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga) bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka yetkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy

manfaatlari bilan bog'liq zararni shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'lovi to'lash) majburiyatini oladi.

Mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagilar sug'urtalanishi mumkin:

- muayyan mol-mulkning yo'qotilishi (nobud bo'lishi), kam chiqishi yoki shikastlanishi xavfi;

- fuqarolik javobgarligi xavfi - boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha javobgarlik, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, shuningdek shartnomalar bo'yicha javobgarlik xavfi;

- tadbirkorlik xavfi - tadbirkorning kontragentlari o'z majburiyatlarini buzishi yoki tadbirkorga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga ko'ra bu faoliyat shart-sharoitlarining o'zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyatidan kutilgan daromadlarni ololmaslik xavfi.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilishga qonunda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha faqat sug'urta qildiruvchining o'zining javobgarlik xavfi sug'urtalanishi mumkin. Ushbu talabga muvofiq bo'lmagan sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan haqiqiy emas.

Shartnomani buzganlik uchun javobgarlik xavfi, bu shartnoma shartlariga ko'ra sug'urta qildiruvchi qaysi taraf oldida tegishli javobgarlikni zimmasiga olishi lozim bo'lsa, o'sha taraf - naf oluvchi foydasiga, hatto sug'urta shartnomasi boshqa shaxs foydasiga tuzilgan yoxud unda kimning foydasiga tuzilgani aytilmagan taqdirda ham, sug'urtalangan hisoblanadi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha bir taraf (sug'urtalovchi) boshqa taraf (sug'urta qildiruvchi) to'laydigan, shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta qildiruvchining o'zining yoxud shartnomada ko'rsatilgan boshqa fuqaro (sug'urtalangan shaxs)ning hayoti yoki sog'lig'iga zarar yetkazilgan, u muayyan yoshga to'lgan yoki uning hayotida

shartnomada nazarda tutilgan boshqa voqea (sug'urta hodisasi) yuz bergan hollarda shartnomada shartlashilgan pulni (sug'urta pulini) bir yo'la yoki vaqti-vaqti bilan to'lab turish majburiyatini oladi.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi kimning foydasini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxs sug'urta pulini olish huquqiga ega bo'ladi.

Agar shartnomada naf oluvchi sifatida boshqa shaxs ko'rsatilmagan bo'lsa, shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Boshqa naf oluvchi ko'rsatilmagan shartnoma bo'yicha sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchilar deb tan olinadi.

Sug'urtalangan deb hisoblanmaydigan shaxs foydasiga, shu jumladan sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan sug'urta qildiruvchi foydasiga shaxsiy sug'urta shartnomasi faqat sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilangina tuzilishi mumkin. Bunday rozilik bo'lmagan taqdirda, shartnoma sug'urtalangan shaxsning da'vosi bo'yicha, bu shaxs vafot etgan taqdirda esa, uning merosxo'rlari da'vosi bo'yicha haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan majburiyatlarning sug'urta qildiruvchi va naf oluvchi tomonidan bajarilishi:

Naf oluvchi foydasiga sug'urta shartnomasi tuzish, shu jumladan u sug'urtalangan shaxs bo'lganda ham, sug'urta qildiruvchini, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan yoxud sug'urta qildiruvchining zimmasidagi majburiyatlar foydasiga shartnoma tuzilgan shaxs tomonidan bajarilmagan bo'lsa, ushbu shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Naf oluvchi mulkiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta tovonini yoxud shaxsiy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta pulini to'lashni talab qilganida sug'urtalovchi undan, shu jumladan sug'urtalangan shaxs naf oluvchi bo'lgan taqdirda ham, sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni, shu bilan birga sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan, lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilishga haqli. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan

majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi naf oluvchining zimmasida bo'ladi.

Sug'urta shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bu talabga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'ladi. Sug'urta shartnomasi bitta hujjatni tuzish yoxud sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qildiruvchiga uning yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan, sug'urta shartnomasining shartlarini o'z ichiga olgan sug'urta polisi (shahodatnomasi, sertifikat, kvitansiyasi)ni topshirish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bu holda sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish va sug'urta mukofoti to'lash yoxud - sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib to'langanda - birinchi badalni to'lash orqali tasdiqlanadi.

Sug'urtalovchi shartnoma tuzish chog'ida sug'urtaning alohida turlari bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)ning o'zi ishlab chiqqan standart shakllarini qo'llanishga haqli.

Sug'urta shartnomasining muhim shartlari quyidagilardan iborat:

Mulkiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urta ob'ekti bo'lgan muayyan mol-mulk yoxud boshqa mulkiy manfaat to'g'risida;
- yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta tovonni miqdorini aniqlash tartibi to'g'risida, agar shartnomada uni sug'urta pulidan oz miqdorda to'lash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Shaxsiy sug'urta shartnomasi tuzishda sug'urta qildiruvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida kelishuvga erishilishi lozim:

- sug'urtalangan shaxs to'g'risida;
- sug'urtalangan shaxs hayotida yuz berishi ehtimol tutilib sug'urta amalga oshirilayotgan voqea (sug'urta hodisasi)ning xususiyati to'g'risida;
- sug'urta puli miqdori to'g'risida;
- sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) to'g'risida;
- shartnomaning amal qilish muddati to'g'risida.

Taraflarning kelishuviga binoan shartnomaga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasi sug'urta qildiruvchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblangan fuqaroning ahvolini qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga nisbatan yomonlashtiradigan shartlarni o'z ichiga olsa, shartnomaning ana shu shartlari o'rniga qonun hujjatlarining tegishli qoidalari qo'llaniladi.

Sug'urta shartnomasi shartlarini sug'urta qoidalarida belgilab qo'yish:

Sug'urta shartnomasini tuzish shartlari sug'urtalovchi yoxud sug'urtalovchilar birlashmasi tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan yoki tasdiqlangan tegishli turdagi sug'urtaning standart qoidalari (sug'urta qoidalari)da belgilab qo'yilishi mumkin.

Sug'urta qoidalarida mavjud bo'lgan va sug'urta shartnomasi (polisi) matniga kiritilmagan shartlar, agar shartnomada (polisda) shunday qoidalar qo'llanilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan va qoidalarining o'zi shartnoma (polis) bilan bitta hujjatda yoki uning orqa tomonida bayon qilingan yoxud unga ilova qilingan bo'lsa, sug'urta qiluvchi (naf oluvchi) uchun majburiydir. Ilova qilingan taqdirda, shartnomani tuzish paytida sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoidalari topshirilgani shartnomada yozuv bilan tasdiqlab qo'yilishi lozim.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi sug'urta qoidalarining ayrim bandlarini o'zgartirish yoki chiqarib tashlash va qoidalarda bo'lmagan bandlarni shartnomaga kiritish to'g'risida kelishishlari mumkin.

Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) o'z manfaatlarini himoya qilib, sug'urta shartnomasida (polisida) ko'rsatib o'tilgan tegishli turdagi sug'urta qoidalarini, hatto agar bu qoidalar ushbu moddaga ko'ra uning uchun majburiy bo'lmasa ham, vaj qilib keltirishga haqli.

Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni sug'urtalovchiga xabar qilishi shart.

Sug'urta shartnomasi (polisi)ning standart shaklida, sug'urta qildiruvchiga berilgan sug'urta qoidalarida yoki yozma so'rovda sug'urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo'yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi.

Agar sug'urta shartnomasi sug'urtalovchining qandaydir savollariga sug'urta qildiruvchining javoblari bo'lmagan holda tuzilgan bo'lsa, sug'urtalovchi tegishli holatlar sug'urta qildiruvchi tomonidan ma'lum qilinmaganligiga asoslanib keyinchalik shartnomani bekor qilishni yoxud uni haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan keyin, ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga bila turib yolg'on ma'lumot berganligi aniqlansa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va ushbu Kodeks 123-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llanilishini talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi aytib qo'ymagan holatlar o'tib ketgan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi.

Sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi o'z zimmasiga olgan sug'urta tovonini yoki sug'urta pulini to'lash xavfi uning tomonidan to'liq yoki qisman boshqa sug'urtalovchida (sug'urtalovchilarda) u bilan tuzilgan qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urtalanishi mumkin.

Qayta sug'urta qilish shartnomasiga nisbatan, agar qayta sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu bobning tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish borasida qo'llanishi lozim bo'lgan qoidalari

tatbiq etiladi. Qayta sugʻurta qilish shartnomasini tuzgan sugʻurta shartnomasi (asosiy shartnoma) boʻyicha sugʻurtalovchi keyingi shartnomada sugʻurta qildiruvchi hisoblanadi.

Qayta sugʻurta qilishda sugʻurta tovonini yoki sugʻurta pulini toʻlash uchun asosiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurta qildiruvchi oldida ushbu shartnoma boʻyicha sugʻurtalovchi javobgar boʻlib qolaveradi.

Biroq asosiy sugʻurta shartnomasi boʻyicha sugʻurtalanuvchi hisoblangan sugʻurta tashkiloti sugʻurta hodisasi yuz berishidan oldin tugatilgan taqdirda, uning ushbu shartnoma boʻyicha huquq va majburiyatlarining qayta sugʻurta qilingan qismi qayta sugʻurta qilish shartnomasi boʻyicha sugʻurtalovchiga oʻtadi.

Ikki yoki bir nechta qayta sugʻurta qilish shartnomalarini ketma-ket tuzishga yoʻl qoʻyiladi. Bunday shartnomalarning har biri keyingi qayta sugʻurta qilish shartnomasiga nisbatan asosiy sugʻurta shartnomasi deb hisoblanadi.

1.2. Yuridik shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sugʻurta polislarini rasmiylashtirish tartibi

Sugʻurta agenti mijoz bilan sugʻurta shartnomasini tuzishdan oldin oʻziga ishongan holda harakat qilmogʻi lozim. U mijoz bilan uchrashuvga puxta tayyorgarlik koʻrishi, fikrlarini bir joyga jamlashi va kutilishi mumkin boʻlgan savollarga malakali javob berishga tayyor boʻlishi talab etiladi.

Sugʻurta agenti yuridik shaxslar bilan shartnomani tuzishda nimalarga eʼtibor qaratishi lozim? Sugʻurtaning asosiy shartlarining qaysi jihatlarini sugʻurta qildiruvchiga koʻproq tushuntirib berishi kerak? Ushbu boʻlim doirasida mana shu savollar yuzasidan fikr yuritamiz.

Dastavval, sugʻurta agenti sugʻurta shartnomasi tuzishdan oldin bu sugʻurta turi sugʻurta faoliyatining qaysi klassifikatoriga oid ekanligini yaxshi

bilishi talab etiladi. Shuningdek, sugʻurta qilish qoidalarini ham chuqur oʻzlashtirib olgan boʻlishi shart.

Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga zid boʻlmagan, mol-mulkka (sugʻurta predmeti boʻlgan hamda sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan koʻchar va koʻchmas mulk: binolar va inshootlar, savdo uskunalari, jihozlar, orgtexnika, sotiladigan mahsulotlar, maishiy va sanoat texnikalari, tugallanmagan kapital qurilish obʻektlari, mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va qurilmalar, inventarlar, xom-ashyolar, material va boshqa mol-mulklar) egalik qilish, foydalanish va boshqarish bilan bogʻliq mulkiy manfaatlar yuridik shaxs mulkini zarardan, olovdan va tabiiy ofatlardan sugʻurta qilish obʻektlari hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulkini sugʻurta qilish sugʻurta shartnomasini tuzgan shaxs, yaʼni sugʻurta qildiruvchi yoki mulk yuqotilganda yoki zararlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishi mumkin boʻlgan sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs (naf oluvchi) foydasiga amalga oshiriladi.

Mol-mulklarni sugʻurtaga qabul qilish maqsadida baholash yuridik shaxsning buxgalteriya balansidagi maʼlumotlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Shundan soʻng agent sugʻurtaga qabul qilinayotgan mulklarga qanday sugʻurta hodisalari sodir boʻlishi natijasida zararlar yetkazilganda sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishini tushuntirish zarur. Shartnomada sugʻurta hodisalari deb nomlangan boʻlim boʻlishi mumkin. Unda mol-mulkning jismoniy yoʻqolishi va shikastlanishidan koʻrilgan toʻgʻridan-toʻgʻri zararlarni quyidagilar natijasida yuzaga kelgan boʻlsa sugʻurtalovchi tomonidan qoplanishi nazarda tutiladi:

- yongʻin, portlash, boʻron, dovul, jala, erning koʻchishi, erning choʻkishi, erning siljishi, yer osti suvlarining harakati, sel, chaqmoq urishi, zilzila;

- doʻl; koʻp qor yogʻishi yoki muzlash; qulfni buzib qilingan oʻgʻrilik; mashina va mexanizmlarning, qurilish materiallari va qurilmalarning, shuningdek uchuvchi jismlarning qulab tushishi; isitish tizimlari, suv oʻtkazgich va kanalizatsiya tarmoqlarining buzilishi; ichki santexnika tizimlarining

yorilishi; elektr uskunalar, asboblari va mashinalarning elektr toki ta'sirida ichki zararlanishi; uchinchi shaxslarning qonunga xilof ravshida qasddan sodir etgan hatti-harakatlari.

Sug'urta agenti shuni yoddan chiqarmasligi zarurki, tomonlarning kelishuviga muvofiq sug'urtalash bir vaqtning o'zida yuqorida keltirilgan barcha sug'urta tavakkalchiliklari bo'yicha yoki boshqa istalgan uyg'unlikda amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxslar bilan sug'urta shartnomasini tuzishda agent mijozga albatta qanday hodisalar sodir bo'lganda mol-mulkga yetkazilgan zararlar qoplanmasligini tushuntirishi talab etiladi. Sug'urta shartnomasida bunday hodisalar "umumiy istisnolar" tariqasida keltiriladi. Masalan, yuridik shaxslar mulkini sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha quyidagilar natijasida sodir bo'lgan hodisalar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- sug'urtalanuvchi, naf oluvchi yoki ular vakillarining korxonada belgilangan yong'indan xavfli yoki portlovchi narsa hamda buyumlarni saqlash qoidalari, shuningdek alohida mulk turlari bilan muomala qilishda belgilangan boshqa qoidalarni qasddan buzishi;

- o'z-o'zidan yonish, achish, chirish yoki boshqa tabiiy xususiyatlar;

- mol-mulkning o'g'irlanishi, uchinchi shaxslar tomonidan qonunga zid, qasddan sodir etilgan harakatlar natijasida yo'q qilinishi yoki shikastlanishi, agar ushbu holat tegishli tashkilotlarga xabar qilinmagan, shuningdek bu tashkilotlar tomonidan ushbu hodisa tasdiqlanmagan bo'lsa;

- kuya, parazit, termit yoki boshqa hashoralar, ko'rinmagan nuqsonlar, tabiiy eskirish, chirish, mog'orlash, ob-havo namligi natijasida keltirilgan shikastlanish, buzilish va zararlar;

- sug'urtalanuvchi yoki ularning vakillariga ma'lum bo'lgan va sug'urtalovchining javobgarligi kuchga kirishidan oldin mavjud bo'lgan mol-mulkning nuqsonlari;

- sug'urtalanuvchi yoki uning vakillari tomonidan sug'urtalangan mol-mulkdan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida sodir bo'lgan zararlar;

- doimiy mavjud bo'lgan foydalanish omillari (eskirish, korroziya) ning ta'siri va ob-havo omillari ta'sirida asta-sekin zararlanishlar yoki sug'urtalangan buyumlarning ishlatilmasligi;

- mol-mulkni tashish, shuningdek sug'urta shartnomasida ko'rsatilmagan joyda saqlanishi;

- sug'urta qildiruvchining sug'urtalovchiga zararlangan buyumlarni yoki ularning qoldiqlarini, zararlangan buyumlarning butkul yo'q bo'lib ketgan hollarini istisno qilgan holda taqdim etishdan bosh tortishi;

- sug'urta shartnomasida qayd etilmagan boshqa barcha hodisalar;

- loyiha-smeta hujjatlarida ko'rsatilmagan ishlarning qisman yoki butunlay to'xtatilishidan zararlar;

- ko'rsatilgan mol-mulkka rasman birlashtirilmagan va ishlash uchun maxsus o'qitilmagan shaxslar tomonidan mol-mulklardan foydalanish va xizmat ko'rsatish natijasida ko'rilgan zararlar;

- yoqilg'i-moylash materiallari, ximikatlar (kimyoviy moddalardan tayyorlangan moddalar), muzlatish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallarning yo'qolishi yoki zararlanishidan ko'rilgan zararlar;

- qurilish texnikasi va transport vositalarining tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan ichki buzilishlari natijasida shikastlanishidan ko'rilgan zararlar;

- sug'urta hodisasi sodir bo'lgan vaqtda yoki undan so'ng mulkning o'g'rilanishidan ko'rilgan zararlar;

- loyiha - smeta xujjatlarida ko'zda tutilmagan tajriba va tadqiqot ishlari;

- yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta'siri;

- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlar;

- agar mol-mulkni sug'urta qilish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zararlar uchun sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida ko'rsatilganidek, quyidagi g'ayri qonuniy manfaatlar sug'urtasini amalga oshirish man etiladi:

- har xil o'yinlar, lotereyalar va garov o'ynashdan ko'rilgan zararlarni sug'urtalash amalga oshirilmaydi;
- garovga olingan odamlarni ozod qilish maqsadida shaxsning majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarini sug'urtalash amalga oshirilmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, quyidagi hollarda sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ga sug'urta qoplamasi to'lashni rad etishga haqli:

- sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi ro'y bergunga qadar to'xtatilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 948 va 950 - moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha to'xtatilgan bo'lsa;

- sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi yoki boshqa qonunlarga asosan o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa;

- sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi yuz berish sabablarini o'rganishga yoki yetkazilgan zararlar hajmini aniqlashga to'sqinlik qilganligi sababli shartnoma bekor qilinganda yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonunlarga asosan sug'urta shartnomasi kuchga ega emasligini e'tirof etish haqida sug'urtalovchiga da'vo berilganda;

- agar sug'urta hodisasi sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning qasddan qilgan hatti-harakatlari oqibatida yuz bergan bo'lsa, faqatgina bu hatti-harakatlar ular tomonidan o'zlarini zarur vaqtda himoya qilish maqsadida yoki juda zarur sharoitda qilingan holatlarni istisno qilgan hollarda sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod bo'ladi.

Sug'urta shartnomasini tuzishda agent e'tibor qilish zarur bo'lgan jihatlardan biri mijozga sug'urta puli, sug'urta mukofoti, uni to'lash tartibidir. Har qanday sug'urta shartnomasida bayon etilganlar aniq ko'rsatiladi.

Sug'urta shartnomasi 1 yil muddatga tuzilganda sug'urta tarifi sug'urta ob'ektining tavakkalchilik darajasiga qarab sug'urta kelishilgan sug'urta puliga

nisbatan foizlarda belgilanadi. Masalan, yuridik shaxslar mol-mulkini sug'urtalashda tarif stavkasi 0,1% dan 5% gacha miqdorda belgilanishi mumkin. Shartnomaning alohida shartlari, tavakkalchilik darajasi hamda sug'urta muddatiga qarab sug'urta tarifi kamaytirilishi yoki oshirilishi mumkin. Sug'urta shartnomasi bir yildan kam yoki ko'p muddatga tuzilganda sug'urta mukofoti bir yillik sug'urta to'lovidan sug'urta muddatiga nisbatan mutanosib ravishda belgilanadi. Tomonlarning kelishuviga muvofiq sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan yoki sug'urtalovchining kassasiga yoki u tomonidan tayinlangan agentga naqd pul to'lash orqali to'lanishi mumkin. Sug'urta mukofotini to'lash tartibi sug'urta shartnomasida belgilanadi. Misol uchun, sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini shartnoma tuzilgandan so'ng uch kun ichida yoki 72 soat mobaynida to'lash shartligi sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda, sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib ravishda olib boriladi.

Sug'urta shartnomasida sug'urta mukofoti bo'lib-bo'lib, ya'ni ikki va undan ortiq marta to'lanishi ko'rsatilishi mumkin. Sug'urta mukofoti yoki navbatdagi to'lov belgilangan muddatda to'lanmasa, agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta shartnomasi o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi va buning uchun tomonlarning qo'shimcha istak bildirishlari shart emas, avval to'langan sug'urta mukofotlari qaytarilmaydi.

Tomonlarning kelishuviga binoan sug'urta shartnomasi bir yilgacha va undan ko'p muddatga tuzilishi mumkin. Sug'urta shartnomasi, agar unda boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'lanishi bilan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining javobgarligi, agar sug'urta shartnomasida boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, naqd pulli hisob-kitobda sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'lanishi bilan va naqd pulsiz hisob-kitobda sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga kelib tushgandan so'ng kuchga kiradi.

Sugʻurta agentiga sugʻurtalovchi tomonidan sugʻurta shartnomasini uning nomidan tuzish vakolati berilgan boʻlsa, u holda shartnomani tuzishda agent va sugʻurta qildiruvchi oʻrtasida quyidagilar toʻgʻrisida bir toʻxtamga kelib olinishi kerak:

- sugʻurtalash obʻekti hisoblangan maʼlum mol-mulk yoki boshqa mulkiy manfaatlar haqida;
- sugʻurta hodisasining tavsifi haqida;
- sugʻurta pulining miqdori haqida;
- agar shartnomada sugʻurta qoplamasini sugʻurta puliga nisbatan kamroq miqdorda toʻlash mumkinligi koʻrsatib oʻtilgan boʻlsa, sugʻurta qoplamasi miqdorini aniqlash tartibi haqida;
- sugʻurta mukofotining miqdori va uni toʻlash muddati (muddatlari) haqida;
- shartnomaning amal qilish muddati haqida.

Mol-mulk sugʻurta shartnomasiga binoan ushbu mol-mulkning saqlanishidan manfaatdor shaxs shartnomani naf oluvchi foydasiga, uning egasi, mol-mulkka boshqa mulkiy huquqi bor shaxslar, ijarachi, pudratchi, saqlovchi, dallol va boshqalar foydasiga tuzishi mumkin. Sugʻurta qildiruvchi va naf oluvchi sugʻurtalangan mol-mulkning but saqlanishidan manfaatdor boʻlmagan holda tuziladigan sugʻurta shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi. Naf oluvchi foydasiga tuzilgan sugʻurta shartnomasida, uning ismi yoki nomi koʻrsatilmaslgi mumkin. Bunday sugʻurta shartnomasi tuzilganda oq polis (oluvchining ismi-sharifi koʻrsatilmagan polis) beriladi. Bunday shartnoma boʻyicha haq-huquqlarni talab qilish uchun sugʻurtalovchiga ushbu polis taqdim etilishi lozim.

Sugʻurtalovchi mol-mulk sugʻurta shartnomasiga koʻra shartnomada shartlashilgan toʻlov (sugʻurta mukofoti) uchun shartnomada koʻrsatilgan hodisa (sugʻurta hodisasi) yuz berganda sugʻurta qildiruvchi yoki boshqa shaxs, shartnoma kimning foydasiga tuzilgan boʻlsa oʻsha shaxs (naf oluvchi)ga, sugʻurtalangan mol-mulkka ushbu hodisa natijasida yetkazilgan zararlar yoki sugʻurta qildiruvchining mulkiy manfaatlari bilan bogʻliq zararlar (sugʻurta

qoplamasini to'lash) uchun shartnomada belgilangan pul (sug'urta puli) chegarasida to'laydi.

Sug'urta shartnomasi yozma ravishda, bitta xujjat tuzish bilan yoki sug'urta qildiruvchining yozma yoki og'zaki arizasiga binoan sug'urtalovchi imzolagan sug'urta polisini sug'urta qildiruvchiga berish orqali amalga oshiriladi. Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomaga boshqa shartlar kiritilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasida sug'urta qildiruvchining holatini qonunda belgilangan holatga ko'ra yomonlashtiruvchi shartlar mavjud bo'lsa, shartnomaning bunday shartlari o'rniga qonunchilikning mos qoidalari qo'llaniladi. Sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi ayrim sug'urtalash qoidalarini o'zgartirish yoki olib tashlash yoxud shartnomaga sug'urtalash qoidalarda bo'lmagan shartlarni kiritish haqida kelishib olishlari mumkin.

Sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida sug'urta qildiruvchi sug'urtalash ob'ektiga doir tuzilgan yoki tuzilishi mumkin bo'lgan boshqa barcha sug'urta shartnomalari haqida hamda ma'lum bo'lgan sug'urta hodisasining sodir bo'lish ehtimolini va uning sodir bo'lishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar hajmini aniqlashda ahamiyatga ega bo'lgan barcha shartlar haqida sug'urtalovchiga ma'lum qilishi kerak. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi(polisi)ning standart shaklida ko'rsatilgan holatlar ahamiyatli holatlar hisoblanadi.

Agar mol-mulk sug'urta qiymatining bir qismi miqdorida sug'urta qilingan bo'lsa, sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) qo'shimcha sug'urtalashni amalga oshirish huquqiga ega, shu jumladan boshqa sug'urtalovchida, lekin bunda barcha tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha umumiy sug'urta puli sug'urta qiymatidan oshmasligi kerak. Sug'urta shartnomasi sug'urta qiymatidan oshiqcha sug'urta puliga nisbatan kuchga ega emas, bu holda ortiqcha to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

Agar sug'urta shartnomasida sug'urta puli sug'urta qiymatidan kamroq qilib belgilangan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta

qildiruvchi (nafdor shaxs)ga u ko'rgan zararlarni sug'urta pulining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib ravishda qoplashi shart. Barcha hollarda shartnoma bo'yicha sug'urtalovchining javobgarligi sug'urta pulidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Mol-mulk sug'urtasi shartnomasini tuzgan sug'urta qildiruvchi vafot etganda, uning huquq va majburiyatlari shu mulkni meros bo'yicha olgan shaxsga o'tadi. Boshqa barcha mulkiy huquqlarning yangi mulkdorga o'tishi holatlarida, agar shartnoma yoki qonunda boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari sug'urtalovchining roziligi bilan yangi mulkdorga o'tadi.

Agar shartnomada boshqa shart belgilanmagan bo'lsa, sug'urta polisi sug'urta qildiruvchiga naqd pulli hisob-kitobda sug'urta mukofoti to'lanishi bilanoq yoki naqd pulsiz hisob-kitobda sug'urtalovchining hisob-kitob raqamiga pul kelib tushgan kundan so'ng uch bank ish kuni ichida beriladi.

Har ikkala tomon xohlagan vaqtda sug'urta shartnomasini bekor qilish huquqiga ega, unda mo'ljallangan bekor qilish muddatidan 30 kun oldin ikkinchi tomon so'nggi manzili bo'yicha yozma ravishda ogohlantirilishi lozim. Sug'urta shartnomasining amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatiladi:

- muddati tugaganda;
- sug'urtalovchi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;
- bir tomonning talabiga binoan shartnoma bekor qilinganda;
- sug'urta qildiruvchining talabiga binoan sug'urtalovchi tomonidan sug'urta qoidalariga amal qilinmaganda;
- yuridik shaxs – sug'urta qildiruvchining yoki sug'urtalovchining faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatilganda;
- jismoniy shaxs – sug'urta qildiruvchi vafot etganda, agar uchinchi shaxs sug'urta qildiruvchining majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga olmasa;
- sud qaroriga binoan sug'urta shartnomasi haqiqiy emas deb topilganda;

- O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Agar sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoli yo'qqa chiqsa va sug'urta tavakkalchiligi sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra mavjud bo'lmay qolsa, masalan, sug'urtalangan mol-mulk sug'urta hodisasidan o'zga sabablar tufayli nobud bo'lsa sug'urta shartnomasi muddati tugamasdan oldin to'xtatiladi. Bu holda sug'urtalovchi sug'urta mukofotining sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan vaqtga mutanosib bo'lgan qismini olish huquqiga ega. Sug'urta shartnomasidan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning muddatidan ilgari voz kechishi natijasida sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti agarda shartnomada boshqacha shart nazarda tutilmagan bo'lsa qaytarilmaydi. Agar sug'urta qildiruvchining yolg'on ma'lumotlari asosida sug'urta shartnomasidagi sug'urta puli oshirilgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bekor qilinishi va yetkazilgan zararlarni qoplash maqsadida sug'urta qildiruvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti miqdoridan ko'proq miqdorda to'lov talab qilish huquqiga ega. Agar sug'urta shartnomasi tuzilganidan so'ng sug'urtalovchiga sug'urta qildiruvchi tomonidan mavjud shart-sharoit haqida ataylab yolg'on ma'lumotlar berilgani ma'lum bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Sug'urta agenti mijoz bilan sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda tomonlarning huquq va majburiyatlarini, ayniqsa mijozning huquq va majburiyatlarini atroflicha tushuntirishi kerak.

Shartnomadaga muvofiq sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega bo'lishi mumkin:

- sug'urtaning amal qilish muddati davomida sug'urta masalalari bo'yicha sug'urtalovchidan maslahatlar olish;
- sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchidan sug'urta qoplamasi olish;

-sugʻurta hodisasi yuz berganda mustaqil ekspertiza oʻtkazilishini talab qilish;

-barcha mulkini va alohida obʻektlarni qoʻshimcha sugʻurta qilish;

-sugʻurtalovchi bilan kelishgan holda sugʻurta shartnomasiga qoʻshimcha va/yoki oʻzgartirishlar kiritish;

-shartnomani sugʻurtalovchini ogohlantirish sharti bilan muddatidan avval bekor qilish.

Shu bilan bir qatorda sugʻurta qildiruvchi quyidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi:

-sugʻurta shartnomasida belgilangan muddatlarda sugʻurta mukofotini toʻlash;

-sugʻurta obʻekti haqida sugʻurtalovchiga toʻliq va aniq maʼlumotlar berish;

-sugʻurta obʻektini koʻrib chiqishga imkoniyat yaratish;

-sugʻurtalovchiga tavakkalchilikdagi sezilarli oʻzgarishlar sodir boʻlgan taqdirda darhol xabar berish, masalan quyidagilar haqida:

■ sugʻurtalangan obʻektning boshqa shaxs ixtiyoriga oʻtishi, mulkni garovga yoki ijaraga berilgani haqida (sotib oluvchi, garovga oluvchi yoki ijarachining nomi va manzilini koʻrsatgan holda);

■ mol-mulk joylashgan oʻrnining oʻzgargani, inshootni qayta jihozlash, qayta qurish yoki ularni boshqa maqsadlarda ishlatilishi haqida;

■ ishlab chiqarish ishlarining toʻxtatilgani yoki faoliyati oʻzgargani haqida;

■ mol-mulkning nobud boʻlishi yoki zararlanganligi haqida, zararlar qoplanishi mumkin yoki mumkinmasligidan qatʼiy nazar;

■ sugʻurtalangan binoda yoki unga aloqador boʻlmagan yaqin joyda yongʻindan xavfli, portlovchi yoki boshqa narsalarning saqlanishi haqida;

■ sugʻurta qildiruvchi talabga koʻra sodir boʻlgan hodisa haqida tegishli davlat organlariga darhol xabar berish shart. Sodir boʻlgan voqea yuzasidan jinoiy ish qoʻzgʻatilganligi, toʻxtatilganligi yoki ishning sudga oshirilganligi

haqida tergov organlari tomonidan tasdiqlangan qarorlarning nusxasini sug'urtalovchiga taqdim etishi zarur;

- sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga zararlangan mol-mulkni ko'zdan kechirish uchun imkoniyat yaratish yoki mol-mulkning zararlangan qismlarini suratga yoki videotasvirga olib berishda amaliy ko'mak berishi lozim;

- sug'urtalangan mol-mulkning sharoitini shartnomaning amal qilish muddati davomida hamda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalangan mol-mulk haqida taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishga sug'urtalovchiga imkoniyat yaratish.

Shartnomada sug'urtalovchining huquqlari ham ko'rsatiladi. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sug'urta shartnomasining amal qilish muddati davomida sug'urtalangan mol-mulkning ahvoli va qiymatini hamda sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalangan mol-mulk haqida taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish;

- sug'urta hodisasi yuz bergani haqida sug'urta qildiruvchining xabar berishini kutmasdan sug'urta hodisalari oqibatida yetkazilgan zararlarni ko'rib chiqish va baholashni boshlash;

- sug'urta hodisasi yuz berganda tavakkalchilik darajasini ifodalovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilish;

- sug'urta hodisasi sodir bo'lgani va uning kelib chiqish sabablarini tasdiqlovchi kerakli hujjatlar va to'liq ma'lumotga ega bo'lmagunga qadar hamda voqea yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atilganida tegishli tashkilotlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar sug'urta qoplamasi to'lashni keyinga surish;

- sug'urta tavakkalchiligining darajasi oshishiga olib keladigan sabablar haqida ogohlantirilgan taqdirda sug'urta shartlarini o'zgartiri;

- sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligini kamaytirishga qaratilgan ogohlantiruv tadbirlarini o'tkazish va tegishli mablag'lar bilan ta'minlash.

Sug'urtalovchining majburiyatlari doirasiga quyidagilar kiradi:

-sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda sug'urta polisini berish va sug'urta shartnomasi tuzishda asoslanilgan sug'urta qoidalari bilan tanishtirish;

-sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta hodisasi yuz berganini tan olganidan va kerakli barcha ma'lumotlarga ega bo'lganidan so'ng sug'urta qoplamasi to'lash muddatlari har bir alohida sug'urta shartnomasi shartlardan kelib chiqqan holda belgilanadi;

-sug'urta qoplamasi to'lanmaydigan bo'lsa, to'lamaslik haqida qaror qabul qilinganidan boshlab 15 kun mobaynida sug'urta qildiruvchini xabardor qilish;

-sug'urta qildiruvchi, naf oluvchilar bilan munosabatlardagi maxfiylikni ta'minlash.

1.3. Jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini rasmiylashtirish tartibi

Fuqarolarga tegishli mulklarni sug'urta qilish bo'yicha shartnoma tuzish ularga o'rnatilgan shakldagi sug'urta polisini berish orqali rasmiylashtiriladi. Bu yerda mulklarning turi (uy mulki, uy-joy, hayvonlar, transport vositasi (kasko), avtomobilning o'zini, haydovchisini va yukni birgalikda sug'urta qilish (avto-kombi)) e'tiborga olinadi.

Sug'urta polisi nusxa oluvchi qog'oz asosida aniq va ko'zda tutilgan barcha ma'lumotlarni ko'rsatgan holda to'ldiriladi. Mobodo, polisda qaysidir qismi to'ldirilmasdan qolsa, u holda o'sha joyga chiziqcha qo'yiladi. Polisni rasmiylashtirish chog'ida unga tuzatishlar kiritish, sug'urta qildiruvchining ismi va familiyasini qisqartirilgan holda yozishga yo'l qo'yilmaydi. Agar sug'urta polisini yozishda xatoliklarga yo'l qo'yilsa, u holda unga "buzilgan" degan yozuv yoziladi va uning o'rniga yangi blanka to'ldiriladi hamda buzilgan polis sug'urta agentining hisobotiga tikiladi va sug'urtalovchiga topshiriladi.

Sug'urta qildiruvchining sug'urtalangan transport vositasi o'rniga boshqa transport vositasini olgan taqdirda sug'urta shartnomasi qaytadan tuziladigan

bo'lsa, bunday holatda sug'urta qildiruvchiga o'rnatilgan tartibda to'ldirilgan yangi sug'urta polisi beriladi, eski sug'urta polisini sug'urta qildiruvchi sug'urta agentiga qaytarishi shart. Sug'urta agenti o'z navbatida sug'urta qildiruvchi qaytarib bergan sug'urta polisini va yangidan rasmiylashtirigan sug'urta polisining nusxasini sug'urtalovchiga topshiradi. Bunday holatlarda yangidan berilgan sug'urta polislarida oldingi polisning raqami, uni amal qilish muddati hamda sug'urta qilingan transport vositasining turi va markasi ko'rsatilgan holda "Qayta rasmiylashtirilgan" deb belgi qo'yiladi.

Sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sug'urta qildiruvchi sug'urta polisini yo'qotib qo'ysa, uning yozma arizasiga asosan unga sug'urta polisning dublikati beriladi. Sug'urta polisi sug'urta qildiruvchiga, agar u sug'urta mukofotini naqd pul bilan to'lasa, sug'urta shartnomasi tuzilishi bilanoq beriladi. Agar sug'urta mukofoti naqd pulsiz shaklda to'lanadigan bo'lsa, sug'urta polisi sug'urta mukofoti sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgandan so'ng uch kundan kechiktirmasdan sug'urta qildiruvchiga beriladi.

Fuqaroning xohishiga ko'ra mulkiy sug'urta shartnomasi, sug'urta mukofotini, nafaqat naqd pul to'lash, balki, naqd pulsiz shaklda, ya'ni sug'urta qildiruvchining ish joyi buxgalteriya orqali yoxud hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bunday sug'urta shartnomasini tuzish quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

Sug'urta qildiruvchi fuqaro belgilangan shakldagi blankada o'zi mehnat qilayotgan korxona yoki tashkilot buxgalteriyasiga uning nomiga hisoblangan ish haqidan sug'urta mukofotini to'lashni ko'rsatgan holda yozma topshiriqnoma beradi. Topshiriqnomada fuqaroga tegishli mulkning turi, sug'urta to'lovi miqdori va sug'urta qildiruvchining qaysi oydagi oylik ish haqidan sug'urta mukofoti to'lash uchun pulni ushlab qolish lozimligi aniq bayon etiladi. Sug'urta qildiruvchining topshirig'iga muvofiq u ishlayotgan tashkilot buxgalteriyasi uning oylik ish haqidan sug'urta mukofotini ushlab qolishi va bu mablag'ni sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazishga majburdir.

Agar qandaydir sababga ko'ra sug'urta qildiruvchi o'z mulkini sug'urta qilish bo'yicha shartnomani tuzish to'g'risidagi qarorini o'zgartirsa, sug'urta mukofoti to'langunga qadar tashkilot buxgalteriyasiga topshiriqni bekor qilish bo'yicha yozma topshiriq berishi mumkin.

Sug'urta agenti o'zi rasmiylashtirgan sug'urta polislari va boshqa hujjatlarning to'g'riligini tekshirish (tarif stavkalarini qo'llanilishi, sug'urta mukofotini hisoblanishi va boshqalar) uchun ularni sug'urtalovchiga taqdim etishi mumkin. Hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligini ko'zdan kechirish, bevosita, sug'urta agenti ishtirokida amalga oshiriladi. Agar tekshirish natijasida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha kamchiliklar aniqlansa, ularni zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'riladi.

Sug'urta agenti sug'urta qildiruvchi fuqarolar ishlayotgan tashkilot buxgalteriyasida u tomonidan topshirilgan topshiriq ro'yxat nusxasida zaruriy qaydlar amalga oshirilganligini tekshirish shart. Ya'ni, ushlab qolingani va o'tkazilgan sug'urta mukofotlari umumiy summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma to'ldirilganligi, sug'urta mukofotini oylik ish haqidan ushlab qolish bo'yicha topshiriq bergan barcha sug'urta qildiruvchilar uchun hisoblangan sug'urta mukofoti sug'urtalovchi hisob raqamiga to'liq ko'chirilganligi va pul ko'chirishni amalga oshirgan buxgalterning imzosi mavjudligi tekshirib ko'riladi. Mobodo, u yoki bu fuqaro uchun sug'urta mukofoti summasi ko'chirilmagan bo'lsa, uning sabablari ko'rsatiladi (masalan, "ishdan bo'shagan", "ish haqi hisoblanmagan", "topshiriq bekor qilingan").

Sug'urtalovchining hisob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgandan va sug'urta agenti tomonidan sug'urta qildiruvchilar mehnat qilayotgan tashkilot buxgalteriyasidan topshiriqnoma ro'yxati nusxasi olingandan so'ng sug'urta polislari shartnomaning amal qilish muddati va sug'urta mukofoti to'langan sana ko'rsatilgan holda to'liq rasmiylashtiriladi. Sug'urta polisini sug'urta qildiruvchiga topshirish kuni polis berilgan sana sifatida qayd etiladi.

Topshiriqnoma bergan fuqaro uchun sug'urta mukofoti to'lanmagan taqdirda bu shaxs uchun sug'urta shartnomasi tuzilmagan hisoblanadi.

Agar fuqaro mulkini sug'urta qilish bo'yicha shartnoma sug'urta mukofotini naqd pulsiz shaklda to'lash va sug'urta polisini taqdim etish bilan bir vaqtning o'zida sug'urta mukofotlarini to'langanligi to'g'risidagi topshiriqnoma olingan bo'lsada, ammo sug'urta mukofoti haqiqatda pul ko'chirish yo'li bilan o'tkazilmagan bo'lsa, u holda sug'urta polisining nusxasiga tegishli ma'lumot qayd etiladi. Bundan tashqari, sug'urta agenti sug'urta mukofoti to'lamagan shaxsga berilgan sug'urta polisini qaytarib olishi va uni sug'urtalovchiga topshirishi shart.

Sug'urta mukofotini naqd pulsiz shaklda to'lash yo'li bilan fuqaroga tegishli mulkni sug'urta qilish bo'yicha shartnoma tuzilayotganda sug'urta agenti mazkur sug'urta turining ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanishiga qat'iy rioya etishi lozim. Sug'urta mukofotini oylik ish haqi hisobidan to'lash to'g'risidagi topshiriqnoma sug'urta qildiruvchi tomonidan shaxsan imzolanishi lozim.

Sug'urta polisi sug'urta mukofotini oylik ish haqidan to'lash bo'yicha topshiriqnoma bergan fuqaroning oila a'zolaridan birining nomiga ham yozilishi mumkin, ammo bu haqda to'lov topshiriqnomasida tegishli yozuv qayd etilgan bo'lishi zarur. Sug'urtalovchining jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urta qilish qoidalarida mulkni ko'rikdan o'tkazib, keyin sug'urtaga qabul qilish zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, u holda sug'urta agenti bu qoidagi rioya etishi kerak.

Sug'urta shartnomasi qaysi muddatga tuzilgan bo'lsa, shartnoma kuchga kirgan sanadan to u amalda bo'lgan sanagacha davom etadi, ya'ni kuchga kirgan sanadan bir kun oldin tugaydi. Bayon etilgan mazkur tartib ilk marta tuzilayotgan sug'urta shartnomalari yoki oldin tuzilgan va amal qilish muddati tugagandan so'ng yangi muddatga rasmiylashtirilayotgan shartnomalar uchun qo'llaniladi. Shuningdek, bunday tartib sug'urta summasi miqdori oshishi bilan bog'liq qo'shimcha shartnomalarni imzolashda ham qo'llaniladi.

Transport vositasini sug'urta qilishda sug'urta shartnomasi, agar bu transport vositasi avtosalondan sotib olinayotgan bo'lsa shu zahoti shartnoma rasmiylashtiriladi, ammo uning kuchga kirishi transport vositasini haqiqatda olgan kundan boshlanadi. Hayvonlar kasalliklardan nobud bo'lgan holatda

sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyati sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan so'ng 10 kundan keyin boshlanadi. Masalan, 15 yanvarda sug'urta mukofotini naqd pul to'lash yo'li bilan tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchining javobgarligi 26 yanvardan boshlanadi. Biroq, sug'urtalovchining kasalliklardan nobud bo'lgan hayvonlar uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyati 6 fevraldan, ya'ni sug'urta shartnomasi kuchga kirgan kundan 10 kun keyin boshlanadi.

Jismoniy shaxslarga tegishli uy mulki, inshootlar va transport vositalarini sug'urta qilish bo'yicha asosiy shartnoma amalda bo'lgan davrda sug'urta qildiruvchining taklifiga asosan sug'urta summasi miqdorini oshirish bo'yicha qo'shimcha kelishuvga erishilishi mumkin. Bunday holatda ham asosiy shartnomada, ham qo'shimcha kelishuvda ko'rsatilgan uy mulklari, inshootlar va transport vositasining umumiy sug'urta summasi ularning amaldagi narxlardan kelib chiqqan holdagi (eskirish summasi hisobga olingan holda) qiymatidan oshib ketishi mumkin emas. Inshootlarni sug'urta qilish bo'yicha amalda bo'lgan sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuv yana shunday holatlarda tuzilishi mumkinki, mazkur inshootga yetkazilgan zarar qoplangandan so'ng sug'urta qildiruvchi inshootni ta'mirdan chiqarib, sug'urta summasini oshirishga xohish bo'lganda. Qo'shimcha kelishuv faqat asosiy shartnomaning amal qilish muddatiga qadar tuzilishi mumkin.

Sug'urta shartnomalarini qaytadan tuzish. Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi muddati tugagunga qadar uni yangi muddatga tuzishi mumkin. Sug'urta mukofotining qaysi kuni va qachon to'langanidan qat'iy nazar, avval amalda bo'lgan shartnoma tugashi bilan yangi muddatga tuzilgan sug'urta shartnomasi kuchga kiradi.

Sug'urta shartnomasi tuzilishidan oldin sug'urta agenti bajarishi zarur bo'lgan holatlar. Fuqarolarga tegishli mulklarni noto'g'ri tuzilishini oldini olish maqsadida agent sug'urta polisini rasmiylashtirishdan avval quyidagilarga o'z e'tiborini qaratishi lozim:

- sug'urtaga qabul qilinayotgan mulklarni haqiqatan ham shartnoma tuzayotgan shaxsga tegishli ekanligini tekshirish (mulklar fuqaroning shaxsiy mulki bo'lishi kerak, transport vositalarini sug'urta qilishda, bundan tashqari, mazkur transport vositasi boshqa shaxslarga notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida berilganmi yoki yo'qligi ham tekshiriladi);

- fuqaroning mulki joylashgan joy rasmiylar tomonidan suv toshqini yoki boshqa tabiiy ofatlar tahdid solishi mumkin bo'lgan hudud deb e'lon qilinganmi yoki yo'qligini aniqlashtirish zarur;

- fuqarolar inshootini ixtiyoriy sug'urta qilishda sug'urta aniq sug'urta summasini chiqarish uchun inshootlarning bahosini aniqlashtirishi kerak;

- fuqaroga tegishli hayvonlarni sug'urta qilishda xo'jalikda mavjud bo'lgan bir xil turdagi barcha hayvonlar soni va ularning yoshiga qarab guruhlarini aniqlash talab etiladi;

- uy mulki va inshootlarni, ayniqsa, dala hovlilarni sug'urta qilishda shuni aniqlashtirish lozimki, ular sug'urta qildiruvchi yoki u tayinlangan shaxs tomonidan muntazam nazorat qilib borilishi, quriqlash signalizatsiyasi mavjudligiga e'tiborni qaratishi zarur. Agar bunday nazorat mavjud bo'lmasa, sug'urta shartnomasi tuzish tavsiya etilmaydi;

- sug'urtaga mulklarni qabul qilish jarayonida sug'urta qildiruvchi ishtirokida, albatta, ularni ko'zdan kechirish kerak. Fuqaroga tegishli transport vositasini sug'urtaga qabul qilishda esa mazkur transport vositasiga egalik qilish huquqini beruvchi tegishli hujjatlar va texnik pasportni ko'rish hamda maxsus jadvalga (agar jadval sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan va bu jadval bilan agent ta'minlangan bo'lsa) muvofiq transport vositasining eskirish summasiga muvofiq sug'urta mukofoti summasidan chegirmalarni ayiradi. Uy hayvonlarini sug'urta qilishda sug'urtaga qabul qilinayotgan hayvonlarning sog'ligi talab darajasidami yoki yo'qmi va mazkur hudud uchun karantin e'lon qilinmaganmi kabi masalalarga agent o'z e'tiborini qaratishi kerak (agar hayvonlar kasallikka chalingan bo'lsa, tug'ish holatida yoki tuqqandan keyin kuzatuvda bo'lgan bo'lsa, shuningdek, so'nggi tibbiy tekshiruv jarayonida

hayvonlarda brutsellez yoxud tuberkulez kasalliklariga chalinganliklarining alomatlari paydo bo'lgan bo'lsa, bunday hayvonlar sug'urtaga qabul qilinmaydi);

- sug'urtaga qabul qilinayotgan mulklar joylashgan joy, uy haqiqatan sug'urta qildiruvchining doimiy yashash joyimi yoki yo'qligini ham nazardan chetda qoldirmaslik talab etiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiya ishimizning birinchi bobi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga yakun yasar ekanmiz, uning natijasida qo'lga kiritilgan (olingan) asosiy xulosalarni aks ettirishga harakat qilamiz. Bizning nazarimizda, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta shartnomasi - tomonlarning aniq yuridik va moliyaviy munosabatlarini belgilab beruvchi hujjatdir. Shartnomada franshiza qo'llanilishi mumkin. Franshiza-yuridik shaxslar ko'rgan zararining muayyan qismi bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tashkiloti ana shu qism doirasida javobgar bo'lmaydi va u to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta qoplamasidan chegirib tashlanadi;

- sug'urta shartnomasi, agar unda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urta mukofoti yoki birinchi badal to'langan paytda kuchga kiradi. Agar shartnomada sug'urta amal qilishi boshlanishining boshqacha muddati nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnomada shartlashilgan sug'urta shartnomasi kuchga kirganidan keyin yuz bergan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiq etiladi;

- sug'urta shartnomasi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfning mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar bo'yicha tugagan bo'lsa, tuzilgan muddati kelishidan oldin bekor bo'ladi;

- sug'urta shartnomasini tuzishda agent e'tibor qilish zarur bo'lgan jihatlardan biri mijozga sug'urta puli, sug'urta mukofoti, uni to'lash tartibidir. Har qanday sug'urta shartnomasida bayon etilganlar aniq ko'rsatiladi.

- Sug'urta agentiga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasini uning nomidan tuzish vakolati berilgan bo'lsa, u holda shartnomani tuzishda agent va sug'urta qildiruvchi o'rtasida quyidagilar to'g'risida bir to'xtamga kelib olinishi kerak:

- sug'urtalash ob'ekti hisoblangan ma'lum mol-mulk yoki boshqa mulkiy manfaatlar haqida;

-sug'urta hodisasining tavsifi haqida;

-sug'urta pulining miqdori haqida;

-agar shartnomada sug'urta qoplamasini sug'urta puliga nisbatan kamroq miqdorda to'lash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa, sug'urta qoplamasi miqdorini aniqlash tartibi haqida;

-sug'urta mukofotining miqdori va uni to'lash muddati (muddatlari) haqida;

-shartnomaning amal qilish muddati haqida.

2-BOB. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTALOVCHI VA MIJOZ O‘RTASIDAGI SHARTNOMA MUNOSABATLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi shartnoma munosabatlarini huquqiy tartibga solishning hozirgi holati

Sug‘urta shartnomasidagi eng muhim jihatlardan biri unda sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash shartlarini bayon etilishidir.

Sug‘urta shartnomasiga asosan sug‘urta qildiruvchi sug‘urta hodisasi yuz bergani haqida xabar topganidan so‘ng darhol bu haqda sug‘urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi kerak. Agar shartnomada sug‘urta hodisasi yuz bergani haqida xabar berishning muddati va/yoki usullari belgilangan bo‘lsa, u holda sug‘urta qildiruvchi xabar berishni shartnomada belgilangan muddat va usulda amalga oshirishi kerak. Xuddi shunday majburiyat naf oluvchiga ham agar u uning foydasiga tuzilgan shartnoma yuzasidan sug‘urta qoplamasiga da’vo qilish huquqidan foydalanmoqchi bo‘lsa yuklatiladi. Ushbu majburiyat bajarilmasa, sug‘urtalovchi sug‘urta qoplamasini agar sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi yuz bergani haqida o‘z vaqtida xabardor qilingani yoki bunday ma’lumotlarning yo‘qligi sug‘urtalovchini sug‘urta qoplamasi to‘lash majburiyatidan ozod qilishi isbotlanmasa to‘lamaslikka haqlidir.

Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta qoplamasini to‘lash haqidagi arizasida quyidagilarni ko‘rsatadi:

- sug‘urta hodisasining tavsifi va sanasi;
- sug‘urta qildiruvchining sug‘urta hodisasi yuz bergandagi hatti-harakatlari;
- zarar miqdori va sug‘urta qildiruvchining da’vo qilayotgan sug‘urta qoplamasining miqdori, tegishli ro‘yxat hamda summasi ko‘rsatilgan holda;
- uchinchi shaxslardan zarar uchun olingan tovon miqdori.

Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan zarar miqdorini kamaytirish

uchun mumkin bo'lgan oqilona choralarni ko'rishga majbur. Sug'urtalovchi tomonidan qoplanadigan zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida qilingan xarajatlar, agar bu xarajatlar zarur yoki sug'urtalovchining topshirig'ini bajarish uchun qilingan bo'lsa, ammo bu chora-tadbirlar samara keltirmagan bo'lsa ham sug'urtalovchi tomonidan zarar albatta qoplanishi zarur. Bu xarajatlar sug'urta pulining sug'urta qiymatiga nisbatiga mutanosib tarzda, boshqa zararlarni qoplash bilan birgalikda ular sug'urta pulidan oshib ketishidan qat'iy nazar qoplanadi. Sug'urta qoplamasi sug'urta qildiruvchining zararni qoplash haqidagi yozma arizasiga hamda vaziyat talab qilgan hollarda tegishli organ va tashkilotlarning hujjatlariga muvofiq to'lanadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi yuz bergani haqida xabar qilinganidan so'ng sug'urta qildiruvchi, sug'urtalovchi va zarur hollarda tegishli tashkilotlar vakillaridan iborat komissiya tuziladi. Agarda sug'urta hodisasi sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan muddat davomida yuz bergani tasdiqlansa, komissiya tomonidan zararlarning sababi va hajmi ko'rib chiqiladi, zararlar va yo'qotishlar miqdori aniqlanadi, sug'urta qoplamasi to'lash uchun summa aniqlanadi va dalolatnomada qayd qilinadi. Ushbu dalolatnoma sug'urtalovchining sug'urta qildiruvchiga sug'urta shartnomasida belgilangan muddatda qoplama to'lashiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Agar tomonlar zararining sababi va hajmi yuzasidan o'zaro kelisha olishmasa, u holda mustaqil ekspertiza o'tkazilishi mumkin. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasidan kam miqdorda to'langan sug'urta shartnomasi, shartnomadagi va to'langan sug'urta qoplamasi o'rtasidagi farq miqdori muddati tugagunga qadar o'z kuchini saqlab qoladi. Agar zarar uning sababchisi tomonidan butunlay qoplangan yoki sud qaroriga binoan uning zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, u holda sug'urta qildiruvchi sug'urta qoplamasini talab qilish huquqidan mahrum bo'ladi.

Agar sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi zarar sababchisi yoki uchinchi shaxslardan qoplama olgan bo'lsa, sug'urtalovchi faqat sababchi yoki uchinchi shaxs tomonidan to'langan qoplama bilan sug'urta shartnomasiga muvofiq

to'lanishi kerak bo'lgan pul o'rtasidagi farqni to'laydi. Agar mulkning yo'q bo'lishi yoki zararlanishi jinoyat natijasida yuz bersa va bu jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, u holda sug'urta qildiruvchiga sug'urta qoplamasi, aybdor shaxsga berilgan da'vo regressi sud tomonidan jinoiy ish ko'rilayotganda ko'rib chiqilishi mumkinligini e'tiborga olgan holda, tergov olib borilayotgan davrda yoki tergov tugagandan so'ng to'lanishi mumkin.

Qoplama miqdori mulk zararlanganda uni almashtirish qiymati bilan, u butkul nobud bo'lganda esa ro'yxatda ko'rsatilgan haqiqiy qiymati bilan chegaralanadi. Ammo sug'urta qoplamasining umumiy miqdori sug'urta shartnomasidagi umumiy sug'urta pulidan yoki xar bir band bo'yicha javobgarlik limitidan oshib ketmasligi kerak. Agar sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan bo'lsa sug'urtalovchi qoplamani sug'urta shartnomasida belgilangan franshizani hisobga olgan holda to'laydi.

Sug'urtalovchining sug'urta qoplamasi to'lamaslik haqidagi qarori to'g'risida sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ga ularning sug'urta qoplamasi to'lash haqidagi murojaatidan boshlab 15 kun mobaynida xabar berilishi kerak. Xabarnomada rad etishning sabablari ko'rsatilishi lozim.

Sug'urtalovchining sug'urta qoplamasini yoki sug'urta pulini to'lamaslik haqidagi qaroriga sudga da'vo arizasini bergan holda e'tiroz bildirilishi mumkin. Agar sug'urta shartnomasida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, sug'urtalash natijasida qoplangan sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi)ning zarar keltirgan shaxsga bo'lgan da'vo huquqi sug'urta qoplamasini to'lagan sug'urtalovchiga u to'lagan pul doirasida o'tadi. Biroq ataylab zarar yyetkazgan shaxsdan da'vo qilish huquqi sug'urtalovchiga o'tishini inkor etuvchi sug'urta shartnomasining sharti kuchga ega emas.

Sug'urtalovchiga o'tgan da'vo huquqi sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) va zarar uchun javobgar shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarga amal qilingan holda amalga oshiriladi. Sug'urtalovchiga o'tgan da'vo huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar, dalillar va

boshqa ma'lumotlarni sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchiga taqdim etishga majbur. Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) zarar uchun javobgar shaxsga bo'lgan sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun da'vo huquqidan voz kechsa yoki uning aybi tufayli da'vo qilishning iloji bo'lmasa, sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini butunlay yoki tegishli qismini to'lamaslik va to'langan sug'urta qoplamasining ortiqcha qismi qaytarilishini talab qilish huquqiga ega.

Agar sug'urta qildiruvchi qayta tashkil qilinsa, uning sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlari qonuniy vorisiga o'tadi va bu haqda sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor etadi. Sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga o'tkazish tomonlarning yozma roziligisiz amalga oshirilishi mumkin emas. Har bir sug'urta shartnomasiga har bir sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan har bir zarar yoki hamma zararlar bo'yicha shartsiz franshiza/shartli franshiza qo'llaniladi. Franshiza miqdori tomonlar bilan kelishiladi va sug'urta shartnomasida ko'rsatiladi. Tomonlar fors-major shartlari davrida sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki butunlay bajara olmasliklari uchun javobgar emaslar. Fors-major shartlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: harbiy harakatlar, blokadalar, ish tashlashlar, davlatlararo va davlat tashkilotlarining cheklovchi va ta'qiqlovchi choralari, sug'urta shartnomalarida ko'rsatilmagan tabiiy ofatlar. Fors-major shartlari yuz berganda yoki tugaganda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilishlari shart. Fors-major shartlari yuz berganda tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarish muddatlari fors-major sharti davom etgan muddatga teng muddatga uzaytiriladi. Sug'urta shartnomasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonunda belgilangan tartibda hal etiladi.

Sug'urta qoplamasi sug'urtalanuvchining zararni qoplash to'g'risidagi yozma arizasi, shuningdek, vakolatli organlardan olingan tegishli hujjatlar asosida to'lanadi. Bunday hujjatlarning taqdim etilmasligi sug'urtalovchiga

ushbu hujjatlar bilan tasdiqlanmagan zarar uchun tovon to'lashni rad etish huquqini beradi.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi (naf oluvchi, sug'urtalangan shaxs) o'rtasida yuzaga keladigan bahs-munozaralarning uchta asosiy ko'rinishi mavjud:

- 1) sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida yuzaga keladigan bahslar;
- 2) sug'urta shartnomasining va sug'urtalovchi o'z majburiyatini bajarishi bilan bog'liq bahs-munozaralar;
- 3) sug'urta shartnomasiga o'zgartirish kiritish, bekor qilish hamda tugatish bilan bog'liq bahs-munozaralar.

Mol-mulk sug'urtasi bo'yicha quyidagi hollarda sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzishdan bosh tortishi mumkin:

- sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtaga olinadigan mol-mulkni saqlashga loqaydlik bilan munosabatda bo'lishi aniqlanganda;

- sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligi yuqori bo'lganda; bunday hollarda sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga riskni kamaytirishga qaratilgan texnik tadbirlar o'tkazishni tavsiya qiladi; ba'zan esa sug'urtalovchi bunday tadbirlarni moliyalashtirishga ogohlantirish tadbirlarining fondi hisobidan ko'mak berishi mumkin;

- sug'urtalovchi bilan sug'urtalanuvchi mol-mulkning haqiqiy yoki texnik holatidagi qiymati yuzasidan kelisha olmaganida;

- sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligini va uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdorini aniqlash yuzasidan to'liq va aniq ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortganda;

- tomonlar sug'urta summasining hajmi yuzasidan bir to'xtamga kela olmaganida;

- sug'urtalanuvchini sug'urta shartnomasi bo'yicha tarif stavkaning miqdori hamda sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta mukofotining miqdori qoniqtirmasa.

Bunday kelishmovchiliklar sug'urtalanuvchi bilan sug'urtalovchi o'rtasida shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida ham kuzatilishi mumkin, lekin uning boshqa sug'urta shartnomasidan farqi shundaki, shaxsiy sug'urta shartnomasi ommabop hisoblanadi. Buning ma'nosi shuki, tijorat shaklidagi sug'urta tashkiloti bunday shartnomani imzolashtan bosh tortishga haqli emas, ba'zi holatlar bundan mustasno, masalan, sug'urtalovchi shartnoma tuzishning imkoni yo'qligini qonun yoki huquqiy hujjatlar yordamida asoslab bersa.

Majburiy sug'urtada sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasini tuzish taklifini dalolatnomani olgandan so'ng sug'urtalovchi 30 kun ichida ikkinchi tomonga (sug'urtalanuvchi) uning shartlarini qabul qilganligi yoki dalolatnomaga qarshi ekanligi to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Agar tomonlar (sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi) uchun sug'urta shartnomasini tuzish qonunga muvofiq majburiy hisoblansa, tomonlardan qay biri uni tuzishdan bosh tortsa, ikkinchi tomon sudga murojaat qilib, uni shartnoma tuzishga majburlashga haqli. Shartnoma tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan tomon ikkinchi tomonga yetkazgan zararini qoplab berishi kerak. Agar sug'urta shartnomasini tuzishda yuzaga keladigan kelishmovchiliklar sudga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan bo'lsa, kelisha olmayotgan shartnoma shartlari sudning qarori bilan aniqlanadi.

Sug'urta shartnomasi tuzilgandan va kuchga kirgandan keyingi bahslar. Bunday bahslar quyidagi hollarda yuzaga kelishi mumkin:

- sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalovchiga sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligini hamda uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararining miqdorini aniqlash holatlarida yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan hollarda; bunday hollarda sug'urtalovchi haqiqiy emas deb topilishini talab qilish va qonunga muvofiq sug'urtalanuvchiga nisbatan choralar qo'llashga haqli;

- sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga shartomaning amal qilish davrida sug'urta riskining oshishiga olib keladigan o'zgarishlar bo'lganligi haqida xabar

bermaganda, shuningdek, sug'urta hodisasining ro'y berish ehtimolligi oshishi munosabati bilan sug'urta mukofotiga qo'shimcha summa to'lashdan bosh tortganda; bunday hollarda sug'urtalovchi shartnomani bekor qilish va uning bekor qilinishi oqibatida keltirilgan zararlarni qoplab berishini talab qilishga haqli;

- shaxsiy sug'urta shartnomasi sug'urtalanuvchi, shuningdek, sug'urtalangan shaxs hisoblanmaydigan shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa.

Sug'urta hodisasi - (ingiliz. insured loss) tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning shartnoma-shartlarida ko'rsatilgan xavflarning sodir bo'lishi. Sug'urta xodisasida, yuzaga kelgan zarar, sug'urta tashkiloti tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, tabiiy ofatlar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovul va shu kabilarning ro'y berishi tushuniladi. Shaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning hayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan "fors-major" deb ham yuritiladi. Zararlarni aniqlash va sug'urta qoplamalarini to'lashda quyidagi professional ishtirokchilar faoliyatidan foydalaniladi.

Avariya komissari - sug'urta tashkilotining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk buyicha ko'rilgan zararining tavsifi va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta tashkiloti avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va faks raqamlari sug'urta tashkiloti tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta tashkilotining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta tashkiloti uchun avariya sertifikati tuzadi yoki unga

yozma axborot tayyorlaydi. Avariya sertifikati mazmuni shundan iboratki sug'urta hodisasi tufayli mol-mulk zararlanganda, ko'rilgan zararining miqdori va tavsifini tasdiqlovchi xujjat. Avariya sertifikati avariya komissari (yoki adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikati sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamani to'lashda sug'urta tashkilotiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Assistans xizmatlariga "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunning 9-8-moddasida quyidagicha ta'rif berib o'tilgan. Assistans sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) xamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Assistans o'z faoliyatini sug'urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi. Assistans xizmatlariga sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug'urtalovchilar tomonidan xaq to'lanadi.

Uzbekistan Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 aprelda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-618-sonli 1 qarorinin 2-ilovasiga (Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida Nizom) muvofiq Assistans xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra:

- sug'urtalovchilar bilan assistans xizmatlari ko'rsatish bo'yicha mustaqil ravishda shartnoma tuzish;
- sug'urtalovchi tomonidan assistans xizmatlari ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlar taqdim etilmagan taqdirda assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

- assistans xizmatlari ko'rsatishga zarur mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;
- assistans xizmatlari ko'rsatish yuzasidan shartnomaga muvofiq majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;
- sug'urtalanuvchilardan (sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta hodisalari (holatlari) to'g'risidagi xabarlarining kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etish va sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) sug'urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug'urta polney asosida zarur yordam ko'rsatish;
- sug'urtalash hollarini ko'rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rish;
- sug'urtalanuvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) chaqiruv qabul qilingan vaqtdan boshlab imkoni boricha eng qisqa muddatlarda zudlik bilan zarur yordam va xizmatlar ko'rsatishning tashkil etilishini ta'minlash;
- qonun xujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatni bajarish.

Adjuster so'zi inglizcha "Adjuster", "claims adjuster", "loss adjuster" so'zlaridan olingan bo'lib, u sug'urta hodisalari sodir bo'lishi munosabati bilan yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'liq sug'urta qildiruvchining da'volarini tartibga solish buyicha xolis mutaxassis, yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib hisoblanadi. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi faktini tasdiqlash maqsadida sug'urta hodisasining sodir bo'lishi bilan bog'liq barcha holatlarni, uning sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq kelishini hamda sug'urta qoplamasi summasini aniqlash, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) uchun ekspert hulosalarini tayyorlash, qarama-qarshi tomonlarning vakillari bilan birgalikda zararlarni tartibga solishda ishtirok etish adjusterining funksiyasiga kiradi. Adjusting so'zi ilk bor XVIII aerning oxirlarida paydo bo'lgan. O'sha davrda Evropada mulkiy risklarni tadqiq qilish va baxolash ishlari bilan ixtisoslashgan baholovchilar shug'ullanishgan. Keyinchalik uning negizida "zararlarni baholovchi" kasbi tilga olina boshlandi. "Adjuster" tushunchasi Angliyada

"Yong'in risklari adjasterlari assotsiatsiyasi" barpo etilishi munosabati bilan 1941 yildan omma orasida keng qo'llanila boshlandi. AQSHda Mustaqil sug'urta adjasterlari assotsiatsiyasi faoliyat yuritadi.

Adjaster - sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta tashkilotining (sug'urta qildiruvchining) manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari buyicha sug'urta tashkilotiga ekspert xulosasini tuzadi xamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta tashkilotining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 aprelda "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-618-sonli Qarorining 2-ilovasiga (Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida Nizom) muvofiq adjaster (adjaster tashkiloti) quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

- o'zi adjaster xizmatlari ko'rsatadigan sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi)ni erkin tanlash;
- sug'urta voqeasi (sug'urta hodisasi)ni o'rganish uchun sug'urtalovchi (sug'urtalanuvchi)dan zarur axborotni so'rash va olish;
- sug'urta hodisasi yuz bergandan so'ng sug'urta ob'yektini ko'zdan kechirish va tekshirish;
- o'zi ob'yektni sirtidan ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish (zaruriyat bo'lganda texnik vositalarni qo'llagan holda);
- faoliyati sug'urta ob'yektlariga daxldor bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan yuridik ahamiyatga ega bo'lgan zarur ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;
- qonun xujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa huquqlar;

- tegishli bilimlarga ega bo'lish yoki o'z shtatida tegishli professional bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarga ega bo'lish;
- sug'urta xujjatlari saqlanishini ta'minlash;
- mijozning tijorat siri yoki boshqa sirini tashkil etadigan holatlarga nisbatan maxfiylikni saqlash;
- maxsus o'rganishni talab etadigan ma'lumotlarni to'g'ri va o'z vaqtida tahlil qilish uchun mumkin bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rish;
- qonun xujjatlarida va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarish.

Adjaster xizmati ko'rsatilishi natijalari ekspert hisobot shaklida rasmiylashtiriladi, undan sug'urtalovchi tomonidan zararlarni to'lashda va sud nizolarini hal etishda foydalanilishi mumkin. Adjaster (adjaster tashkiloti)ning ekspert hisobotidagi xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi davrida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda zararlarni mustaqil tartibga solish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar an'anaviy ravishda ikki toifaga ajratiladi: "Independent Adjuster", (mustaqil adjuster)- xabar qilingan da'volarni tartibga solish uchun sug'urtalovchi nomidan faoliyat yurituvchi tashkilot yoki shaxs; "Public Adjuster" (ommaviy adjuster) - sug'urtalovchiga xabar qilingan da'volarni tartibga solish buyicha sug'urta qildiruvchining manfaatlarini taqdim etuvchi tashkilot yoki shaxs. Mustaqil va ommaviy adjuster tushunchalari o'rtasida qarashda unchalik ko'zga tashlanmaydigan, ammo katta farq mavjud. Mustaqil adjuster sug'urtalovchining manfaatlarini himoyalamaydi, balki uning topshirig'iga ko'ra vazifalarni bajaradi. Ommaviy adjuster esa sug'urta qildiruvchining nomidan ish yuritadi va uning manfaatlarini himoya qiladi.

Odatda, mustaqil adjasting korporativ mulkiy manfaatlarini sug'urtalash sektorida keng tarqalgan. Sug'urtaning ommaviy turlarida, xususan jismoniy shaxslarning mol-mulkini sug'urta qilishda hanuzgacha zararlarni tartibga solish protsedurasi sug'urta kompaniyasi va sug'urta brokerlarining xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo sug'urta kompaniyasi tomonidan zararlarni

tartibga solish natijalari sug'urta qildiruvchilarni qoniqtirmaydi va ularning sug'urta institutiga salbiy munosabatini shakillantiradi. Bu holat bozorning eng muhim iqtisodiy tartibga soluvchi tizimining rivojlanishini sekinlashtiradi. Shu sababli adjasterlarning ayrim funksiyalari xolis ekspertlarga (masalan, avtomobillarni sug'urta qilish bozorida mustaqil avariya komissari va baholovchilar keng tarqalgan bo'lib, ularning funksiyasiga transport vositasining shikastlanish xususiyatlari va xajmini aniqlash xamda ta'mirlash xajmi va qiymatini baholash xamda sug'urta xodisasiga oid xujjatlarni yig'ish kiradi) beriladi.

Zararlarning ob'yektivligini aniqlash maqsadida sug'urta da'volarini tartibga solish standartlarini takomillashtirish maqsadida ayrim mamlakatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasida sug'urta adjasterlarining milliy assotsiatsiyasi tuzilgan.

2.2. Sug'urta da'volari va ularning ko'rib chiqilishi tahlili

(“O'zagrosug'urta” DASK faoliyati misolida)

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari sug'urta da'volarini o'ziga xos tarzda bartaraf etishadi. Jumaladan, malakatimizda etakchi sug'urta tashkilotlaridan biri “O'zagrosug'urta” Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi tomonidan bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta da'volarini bartaraf etadi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha avtotransport vositasidan foydalanayotganda uchinchi shaxslarning hayoti, salomatligi yoki mulkiga zarar etganda Sug'urta qildiruvchining fuqarolik javobgarligini kelib chiqishi sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Fuqarolar sug'urta hodisasi sodir bo'lganda taqdim etiladigan xujjatlar quyidagilardan iborat:

- Sug'urta polisi;
- Yo'l transport hodisasini tasdiqlovchi ma'lumotlar;

- Sug'urta qildiruvchi va jabrlanuvchiga tegishli transport vositalari xujjatlari va xaydovchilik guvoxnomalari;
- Mulkga etkazilgan zarar bo'yicha baxolash xisoboti;
- Jabrlanuvchining sog'ligiga etkazilgan zarar bo'yicha tibbiy muassasalarning xulosalari, vafot etgan taqdirda o'lim xaqidagi guvoxnomaning nushasi.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha hozirgi kunda respublikamizda 9 ta sug'urtalovchi faoliyat olib bormoqda, hamda qonunga ko'ra sug'urtalovchilarga quyidagi talablar qo'yilgan: maxsus vakolatli davlat organi tomonidan berilgan majburiy sug'urta

Yuqoridagi 3-jadvalda 2014 yilda O'zbekiston Respublikasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalashga oid statistik ma'lumotlar o'rin topgan. Bugungi kunda majburiy sug'urtaning ushbu turi jadvalda nomlari keltirilgan 9 ta sug'urta kompaniyasi tomonidan amalga oshirilmoqda. O'tgan yili mazkur sug'urta kompaniyalari va ularning joylardagi filiallari tomonidan jami 1924075 dona sug'urta polislari sotilgan bo'lib, bu o'tgan 2013 yilning tegishli ko'rsatkichidan 105,8 foizga ko'pdir (1-jadvalga qarang).

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sotilgan sug'urta polislarning 59,5 foizi yoki 1145208 donasi davlat ulushiga ega sug'urta kompaniyalari – "O'zagrosug'urta", "O'zbekinvest" va "Kafolat" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan 40,5 foizi esa "Alfa Invest", "Kapital Sug'urta", "Asia insurers", "Alskom", "Universal Sug'urta", "Ishonch" sug'urta kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelgan.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha 2014 yilning yanvar-dekabr uchun asosiy ko'rsatkichlari sug'urta kompaniyalari kesimida⁴

№	Sug'urta kompaniyalari	Tuzilgan sug'urta shartnomalari soni (dona)			Tushgan sug'urta mukofotlari hajmi (mln.so'm)			Qoniqtirilgan sug'urta da'volari soni (dona)			Qoniqtirilgan sug'urta da'volari summasi (mln.so'm)		
		Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1.	"O'zagrosug'urta" DASK (AJ)	736 968	38,3%	100,4%	22 543,9	33,0%	108,3%	1 417	22,6%	114,7%	2 387,1	22,7%	123,3%
2.	"Kafolat" DASK (AJ)	326 950	17,0%	104,2%	12 379,8	18,1%	113,9%	1 281	20,5%	115,5%	2 104,0	20,0%	124,5%
3.	"Uzbekinvest" EIMSK	81 290	4,2%	94,4%	3 298,7	4,8%	103,8%	238	3,8%	108,7%	421,8	4,0%	119,2%
	davlat ulushi bor kompaniyalar bo'yicha JAMI:	1 145 208	59,5%	101,0%	38 222,4	55,9%	109,6%	2 936	46,9%	114,6%	4 912,8	46,6%	123,5%
9.	AJ "Alfa Invest" ST	218 374	11,3%	173,9%	8 423,6	12,3%	184,4%	1 012	16,2%	130,9%	1 724,9	16,4%	150,8%
5.	AJ "Kapital Sug'urta"	159 727	8,3%	95,8%	6 733,8	9,8%	104,2%	1 209	19,3%	133,9%	1 955,1	18,6%	146,1%
4.	AJ "Alskom" SK	174 539	9,1%	113,2%	5 951,8	8,7%	122,4%	347	5,5%	109,1%	616,2	5,8%	116,4%
6.	MChJ "Asia Inshurans" SK	112 752	5,9%	97,8%	4 653,0	6,8%	106,7%	317	5,1%	92,4%	536,9	5,1%	95,9%
7.	AJ "Universal Sug'urta"	75 966	3,9%	94,8%	2 914,5	4,3%	105,0%	139	2,2%	125,2%	252,3	2,4%	137,2%
8.	MChJ "Ishonch" BSK	37 509	1,9%	86,4%	1 492,3	2,2%	95,2%	303	4,8%	196,8%	534,9	5,1%	200,2%
	qolgan kompaniyalar bo'yicha JAMI:	778 867	40,5%	113,7%	30 169,1	44,1%	122,6%	3 327	53,1%	127,9%	5 620,2	53,4%	139,7%
	JAMI:	1 924 075		105,8%	68 391,5		115,0%	6 263		121,3%	10 533,1		131,6%

⁴ www.mf.uz sayt ma'lumotlari.

2014 yilda sotilgan sugʻurta polislari boʻyicha jami 68391,5 mlrd.soʻm miqdorida sugʻurta mukofotlari kelib tushgan. Bu oʻtgan 2013 yilning tegishli koʻrsatkichidan 118,6 foizga koʻpdir.

Navbatdagi diagrammada transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash boʻyicha kelib tushgan sugʻurta mukofotlarining respublika mintaqalari kesimidagi holati keltirilgan (4-jadvalga qarang).

Quyidagi jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, 2014 yilda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalash boʻyicha kelib tushgan sugʻurta mukofotlarining 19,7 foizi Toshkent shahri ulushiga toʻgʻri keladi. Shuningdek, 2014 yilda Toshkent viloyati, Samarqand viloyati va Fargʻona viloyatlarida ham nisbatan koʻproq sugʻurta mukofoti tushumini tushirishga erishilgan.

boʻyicha sugʻurta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga ega boʻlish; Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida majburiy sugʻurta shartnomasi tuzishga, jabrlanuvchining (uning merosxoʻri yoki huquqiy vorisining) sugʻurta toʻlovlari haqidagi talablarini koʻrib chiqishga obʼektlarni davlat mablagʻlari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sugʻurtasi:

Har qanday kutilmagan tasodifiy va toʻsatdan roʻy beruvchi hodisalar natijasida sugʻurtalangan mulkning shikastlanishiga yoki nobud boʻlishiga sabab boʻluvchi haqiqatda sodir boʻladigan voqealar, yaʼni yongʻin, chaqmoq, portlash, uchuvchi apparatlarning qulashi, oʻz-oʻzidan yonish, oʻgʻirlik va uchinchi shaxslarning qasddan sodir etgan harakatlari, suv toshqini va suv bosishi, quvurlarning yorilishi, boʻron, dovul, zilzila,

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha 2014 yilning
yanvar-dekabr uchun asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida⁵

№	Hududlar	Tuzilgan sug'urta shartnomalari soni (dona)			Tushgan sug'urta mukofotlari hajmi (mln.so'm)			Qoniqtirilgan sug'urta da'volari soni (dona)			Qoniqtirilgan sug'urta da'volari summasi (mln.so'm)		
		Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi	Jami	ulushi	o'zgarishi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	83 468	4,3%	106,0%	2 202,5	3,2%	123,3%	96	1,5%	234,1%	176,2	1,7%	241,1%
2.	Andijon viloyati	142 067	7,4%	103,8%	4 782,2	7,0%	112,6%	159	2,5%	109,7%	307,2	2,9%	119,2%
3.	Buxoro viloyati	143 304	7,4%	102,5%	4 428,1	6,5%	120,0%	67	1,1%	108,1%	124,7	1,2%	114,9%
4.	Jizzax viloyati	54 957	2,9%	112,7%	1 367,5	2,0%	126,1%	61	1,0%	234,6%	133,5	1,3%	247,7%
5.	Qashqadaryo viloyati	140 797	7,3%	108,3%	3 897,1	5,7%	119,6%	90	1,4%	191,5%	148,8	1,4%	203,7%
6.	Navoiy viloyati	62 796	3,3%	107,5%	1 897,5	2,8%	118,6%	20	0,3%	153,8%	31,4	0,3%	130,9%
7.	Namangan viloyati	120 608	6,3%	111,6%	4 034,3	5,9%	118,4%	164	2,6%	113,9%	310,5	2,9%	132,6%
8.	Samarqand viloyati	197 427	10,3%	105,3%	6 667,6	9,7%	112,1%	121	1,9%	246,9%	242,6	2,3%	260,7%
9.	Surxandaryo viloyati	88 315	4,6%	103,8%	2 525,9	3,7%	116,3%	72	1,1%	175,6%	109,4	1,0%	154,6%
10.	Sirdaryo viloyati	37 755	2,0%	105,5%	1 002,2	1,5%	116,2%	138	2,2%	142,3%	259,9	2,5%	153,7%
11.	Toshkent viloyati	181 412	9,4%	92,1%	6 829,9	10,0%	97,1%	894	14,3%	129,0%	1 506,4	14,3%	136,6%
12.	Farg'ona viloyati	173 741	9,0%	104,8%	6 490,5	9,5%	112,6%	88	1,4%	133,3%	182,3	1,7%	156,2%
13.	Xorazm viloyati	118 251	6,1%	110,1%	3 222,2	4,7%	123,0%	67	1,1%	163,4%	121,5	1,2%	159,6%
14.	Toshkent shahri	379 177	19,7%	111,4%	19 044,0	27,8%	119,1%	4 226	67,5%	114,2%	6 878,6	65,3%	124,0%
	Respublika bo'yicha JAMI:	1 924 075		105,8%	68 391,5		115,0%	6 263		121,3%	10 533,1		131,6%

⁵ www.mf.uz sayt ma'lumotlari.

sel, ko'chki, tuproqning cho'kishi, o'pirilish, qulash, qisqa tutashuv, ortiqcha kuchlanish, elektr yoylari, mashina va mexanizmlar, qurilish materiallari va konstruksiyalarning qulab tushishi, nuqsonli materiallar va konstruksiyalarni ongsiz ravishda qo'llashdan ko'rilgan zarar, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda uchinchi shaxslar oldida fuqarolik javobgarligining paydo bo'lishi" sug'urta hodisasi hisoblanadi. Hodisa sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida yozma ravishda xabardor qiladi.

Sug'urta tovonini to'lash uchun quyidagi xujjatlar taqdim etiladi:

- Sug'urta polisi;
- Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi mutasaddi tashkilotlarning hujjatlari;
- Sug'urta hodisasi natijasida zararlangan Mol-mulkning fotosuratlar;

Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasiga oid boshqa ma'lumotlar.

Ixtiyoriy sug'urta turlari:

Baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish bo'yicha quyidagilar sug'urta hodisasi hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxs baxtsiz hodisa va uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati natijasida tan jarohat olishi yoki vafot etishi.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda taqdim etiladigan xujjatlar

- Sug'urta polisi,
- Fuqarolik pasporti yoki voyaga etmagan shaxs bo'lganda tug'ilganlik haqidagi guvoxbomasi,

• Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi ma'lumotlar; masalan: tibbiy ma'lumotnomalar

• Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasiga oid boshqa ma'lumotlar.

Garovga qo'yilgan avtotransport vositalarini va avtotransport vositalarini ixtiyoriy sug'urta qilish turi bo'yicha quyidagilar sug'urta hodisasi hisoblanadi

- Olib qochish, O'g'irlik, Bosqinchilik, Talonchilik, YOng'in, Portlash, Jismlar urilishi, Yo'l transport xodisasi (YTH), Tabiiy ofatlar;

- Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati - transport vositasiga uchinchi shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan harakatlar tufayli zarar etkazish.

Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalovchiga taqdim etiladigan xujjatlar to'plami quyidagilardan iborat.


avtotransport vositasi yo'qolishiga:

a) sodir bo'lgan hodisa va ushbu hodisa yuzasidan tergov ishlari borishi to'g'risida Sug'urta qildiruvchi xabari bo'lgan tegishli tashkilotning (DYHXX, IIB, YOXNB) ma'lumoti.

b) Sug'urta polisi.

avtotranssport vositasi shikastlanganda:

a) hodisa holatlari va ishtirokchilari ko'rsatilgan holda (DYHXX, IIB, YOXNB) vakolatli tegishli organlarning vakillari tuzgan dalolatnoma (ma'lumotnoma yoki bayonnoma) nusxasi;



2.1-rasm. "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi (AJ) tomonidan⁶

b) tiklash ta'mirini o'tkazishda avtotransport vositasini tiklashga zarur materiallar va ehtiyot qismlari, qilingan ishlar ro'yxati ko'rsatilgan holda baxolash ekspertlari tomonidan berilgan baxolash xisoboti yoki dalolatnomasi; O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi


Jismoniy shaxslarga 3610.3 mln. so'm to'langan sug'urta tovonlari

⁶ "Ўзагросугурта" ДАСК маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

YUridik shaxslarga 3189.7 mln. so‘m

JAMI 6800.0 mln. so‘m

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha to‘langan sug‘urta tovonlari 2013 yil davomida 1166 nafar fuqarolarga 1769.5 mln. so‘m, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103.4 foizga ortgan.




2.2.-rasm. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha to‘langan sug‘urta tovonlari⁷

Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha 2013 yil davomida mehnat vazifalari bajarishda baxtsiz hodislar natijasida jabrlangan 98 nafar fuqarolarga 702.7 mln. so‘m miqdorida sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

Ob’ektlarni davlat mablag‘lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha to‘langan sug‘urta tovonlari 2013 yil davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida Hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobidan qurilayotgan Nukus tumani “Uzunko‘l” massivida qurilayotgan 1 ta shaxsiy yashash uyida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo‘yicha **3.3 mln. so‘m**, Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi “Obod suv to‘plash va

⁷ “Ўзгросугурта” ДАСК маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган.

tozalash inshooti” ob’ektlarida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo’yicha **9.0 mln so‘m** miqdoridagi jami **12.3 mln. so‘m** miqdoridagi sug’urta tovonlari to‘lab berildi.




2.3-rasm. Baxtsiz hodisa sug’urta turlari bo’yicha sug’urta tovonlari⁸

2013 yil 11 oyi davomida 4821 nafar fuqarolarga 1365.0 mln.so‘m miqdorida sug’urta tovonlari to‘lab berildi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 169.8 foizga oshgan.

Garovga qo‘yilayotgan avtotransport vositalarini va avtotransport vositalarini ixtiyoriy sug’urta qilish turlari bo’yicha 2013 yil davomida har xil hodisalar natijasida avtotransport vositalari zararlanganligi sababli 41 nafar sug’urta qildiruvchilarga 173.1 mln.so‘m miqdorida sug’urta tovonlari to‘lab berildi.

Joriy yilning 11 oyi davomida 809 nafar fuqarolarning yashash uylariga va uy ro‘zg‘or buyumlariga zarar etishi bo’yicha 398.0 mln.so‘m miqdorida sug’urta tovonlari to‘lab berildi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 122.6 foizga o‘sgan.

⁸ “Ўзгросуғурта” ДАСК маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган



2.4-rasm. Aholiga tegishli bo'lgan imorat va uy-ro'zg'or buyumlarini sug'urta qilish turi bo'yicha⁹

Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan lizingga olingan (olinayotgan) texnikalarni sug'urta qilish bo'yicha 2013 yil 11 oy davomida qishloq xo'jalik texnikasini zararlanishi bo'yicha Namangan viloyati, Namangan tumanidagi "Musaffo iqlim trans servis" fermer xo'jaligiga **6.4 mln. so'm**, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahridagi "Usmon" fermer xo'jaligiga **6.5 mln. so'm** miqdorida sug'urta to'voni to'lab berildi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining ekinlaridan kam xosil olish natijasida ko'radigan moliyaviy zararini sug'urtalash bo'yicha.

2013 yil 11 oyi davomida paxta xosilidan kam xosil olishi natijasida ko'rgan zarari uchun 49 ta fermer xo'jaliklarga 612.4 mln.so'm, g'alla xosildan kam xosil olishi natijasida ko'rgan zarari uchun 86 ta feremer xo'jaliklariga 194.5 mln.so'm, qishloq xo'jalik korxonalarining boshqa ekinlardan kam xosil olish sug'urta turlari bo'yicha, bog' va uzumzorlar xosili 15 ta fermer xo'jaliklariga 24.6 mln so'm, masxar ekin xosili bo'yicha 1 ta fermer xo'jalikka 25.8 mln so'm miqdorida sug'urta tovonlari to'lab berildi.

⁹ "Ўзгросуғурта" ДАСК маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

Qishloq xo‘jalik korxonalarining chorva mollari sug‘urtasi bo‘yicha 323 ta xo‘jaliklarga 795.7 mln so‘m miqdorida sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

Tijorat banklari tomonidan qishloq xo‘jalik korxonalariga g‘alla xosili etishtirish uchun ajartilgan imtiyozli kredit mablag‘larini qaytmasligi bo‘yicha 2013 yil 11 oyi davomida “Agrobank” ning Qoraqapog‘iston Respublikasi filialiga **213 ta** fermer xo‘jaliklari tomonidan qaytarilmagan **1053.8 mln.so‘m**, Milliy bankning Namangan viloyati xududiy filiallariga **8 ta** fermer xo‘jaliklari tomonidan qaytarilmagan **61.7 mln.so‘m** va Jizzax viloyat xududiy filiallariga **38 ta** fermer xo‘jaliklari tomonidan qaytarilmagan **240.7 mln.so‘m**, jami 0000 mln.so‘m miqdorida sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

2.3. Sug‘urta vositachilari, ularning sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni va faoliyati tahlili

Sug‘urtalovchi va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni amalga oshirishda sug‘urta vositachilari muhim o‘rinni egallaydilar. Sug‘urta vositachilari ikki xil bo‘ladi - sug‘urta agentlari va sug‘urta brokerlari. Mamlakatimizda sug‘urta agentlarining faoliyati “O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” Qonuni va ”O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 2003 yil 28 yanvardagi 19-son buyrug‘iga asosan tasdiqlangan hamda 2003 yilning 1 fevralida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1213-son bilan ro‘yxatga olingan “Sug‘urta agentlari to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq tartibga solinadi. Sug‘urtalovchining nomidan va uning topshirig‘iga muvofiq sug‘urta shartnomalarini tuzish hamda uning ijrosini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sug‘urta agenti deyiladi.

Sug‘urta agenti – sug‘urtalovchi nomidan va uning topshirig‘iga ko‘ra berilgan vakolatlar doirasida ish yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslardir. Sug‘urta agenti va sug‘urta tashkiloti o‘rtasidagi munosabatlar agentlik bitimiga asoslanadi. Agentlik bitimi - tomonlarning xuquq va majburiyatlarini,

javobgarligini hamda ular o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibini belgilovchi yuridik hujjat.

Sug'urta agentlari sug'urtalovchining topshirig'iga binoan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq faoliyat yurituvchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir. Sug'urta agenti tomonidan sug'urta shartnomasining tuzilishini vakil tomonidan bitimni amalga oshirish deb baholanadi. Vakolat munosabatlarining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- sug'urta vositachisi muayyan bir sug'urtalovchining vakili sifatida chiqadi, ya'ni beistisno tarzda uning nomidan va maxsus hujjat (maslan, ishonchnoma, agentlik shartnomasi va h.k.) asosida ish olib boradi;

- sug'urta agenti unga sug'urta tashkiloti tomonidan berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi. Bunda agentning vakolatlari tuziladigan shartnomalar turiga ko'ra, sug'urtalanuvchilar toifasiga ko'ra, alohida bitimning hajmiga ko'ra belgilanishi mumkin;

- sug'urta agenti tomonidan tuzilgan sug'urta shartnomasi bo'yicha huquqlar va majburiyatlar bevosita sug'urtalovchiga daxldor bo'ladi. Ammo agent sug'urta shartnomasini tuzish chog'ida o'z vakolatlarini su'istemol qilgan bo'lsa yoki sug'urtalovchi tomonidan vakolat berilmagan harakatlarni amalga oshirsa, bunday shartnoma amaldagi qonunchilikka binoan sug'urta agentining o'z nomidan va o'z manfaatlari bo'yicha tuzilgan deb hisoblanadi. Sug'urtalovchi keyinchalik bunday sug'urta shartnomasini ma'qullashi ham, yoki uni rad etishi ham mumkin. Biroq sug'urtalovchi har qanday holatda ham sug'urta agenti vositachiligida tuzilgan bunday shartnomalar amaldagi qonunchilik talablariga va/yoki sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlangan, sug'urta nazorati ijroiya idorasi bilan kelishilgan sug'urtalash shartlariga (qoidalariga) xilof bo'lsa, uni ma'qullashga haqli emas.

Sug'urta vositachilarining faoliyati ikkita asosiy vazifani bajarishga qaratilgan – sug'urta xizmatlarini sug'urtalovchidan iste'molchi tomoniga harakatlantirish va xizmat iste'molchilariga maslahat yordami ko'rsatishdir. Agentning huquqiy maqomini hisobga olgan holda, uning faoliyati aynan

birinchi vazifani bajarish bilan ajralib turadi, holbuki, hayotni sug'urtalash xizmatlarini harakatlantirayotgan chog'ida agent vositachilik vazifalari bilan bir qatorda maslahat xizmatini ham ko'rsatadi. Bunda hayotni sug'urtalashga oid sug'urta mahsulotlarini harakatlantirishni tashkil etish tajribasida sug'urta maslahatchisi tushunchasining ishlatilishi odatdagi hol, faqat bu o'z huquqiy maqomiga ko'ra sug'urta agenti bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi faoliyatida maslahat berishdan ham bir vosita sifatida foydalanadi, zarur darajada mahorat va malakaga ega bo'lsa, ehtimoldagi iste'molchining sug'urta mahsulotini xarid qilish bo'yicha talablarini va maylini aniqlab olish, unga nihoyatda mos keladigan xizmat turini hamda sug'urta shartnomasini tuzish, o'zgartirish (takomillashtirish) va bekor qilish shartlarini tavsiya etish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Yuridik shaxs bo'lgan sug'urta agentlari bu - ko'pincha asosiy faoliyat turi sifatida sug'urta vositachiligidan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan, ammo o'z mijozlari bazasi mavjudligi sababidan o'z tovarlari, ishlari xizmatlari bilan bir qatorda sug'urta xizmatlarini ham tavsiya qiluvchi kompaniyalar yoki maklerlik agentliklaridir. Yuridik shaxs – agentlar sifatida ish yurituvchi birinchi turdagi kompaniyalarga misol tariqasida sayyohlik agentliklarini, avtosalonlarni va avtota'mirlash ustaxonalarini (avtoservislarni), notarius idoralarini, adliya (advokatlik) byurolarini va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Ikkinchi turdagi kompaniyalar – bu mazkur kompaniya joylashgan mamlakat qonunchiligida ko'zda tutilgan muayyan tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan yuridik shaxslar (xorijiy korporatsiya) bo'lib, aynan sug'urta kompaniyalariga agentlik tariqasida sug'urta vositachiligi xizmatlarini ko'rsatish maqsadida tuzilgandir.

Sug'urta agentini mukofotlash, qoidaga ko'ra, qayd etilgan stavkalar (masalan, foizlarda) asosida bajariladi va sotilgan sug'urta xizmatlari hajmiga bog'liq bo'ladi.

Sug'urta xizmatlarini sotishning muqobil yo'nalishlarini xorijiy sug'urta kompaniyalari to'g'ridan-to'g'ri sotuv resurslarida, shuningdek, banklar va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlik qilishda deb hisoblamogdalar.

Iste'molchi telefon orqali sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishidan foydalanib sug'urta mahsulotini sotish, Internet yordamida sug'urta mahsulotlarini sotib olish va h.k. to'g'ridan-to'g'ri sotuv usulini amalga oshirishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Shu orqali sug'urta kompaniyalari sug'urta mahsulotlarini harakatlantirishga, ayniqsa, ommaviy sug'urta mahsulotlari bo'yicha o'z xarajatlarini optimallashtiradilar.

Sug'urta mahsulotlarini bank orqali tarqatishning strategiyasi quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi:

a) bancassurance deb nom olgan bank sug'urtasi, yoki bankka qo'shimcha kredit resurslarini, shuningdek, uning o'zi bevosita taqdim etmaydigan xizmatlarni jalb etish imkonini beradigan usul bo'lib, ipoteka kreditlari polisini, hayotni sug'urtalash, jumladan, hayotni kredit orqali sug'urtalash polisini, baxtsiz hodisalar sug'urtasi polisini sotish kabilardan kelib chiqadigan xatarlardan sug'urtalash chog'ida to'g'ri keladi;

b) assurfinanse deb nom olgan – assyurfinans yoki sug'urtalovchi tomonidan moliyaviy xizmatlarning taqdim etilishini ko'zda tutish;

c) aralash strategiya – bank sug'urtasi va assyurfinans vositalarini qo'shib olib borish usuli allfinanz deb ataladi va o'zida banklar bilan sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi, xuddi shuningdek, moliya xizmatlarini ko'rsatuvchi barcha sub'ektlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib borayotganini aks ettiradi.

Banklar va sug'urta kompaniyalarining o'zaro hamkorligining: sug'urta xizmatlarini bank mahsulotlariga kiritish, sug'urta trastidan, sug'urta depozit jamg'armasidan foydalanish, bankning jismoniy va yuridik shaxslarga kredit ajratish dasturiga sug'urtalovchi xizmatlarini ham kiritish kabi boshqa shakllari ham mavjud.

Shunday qilib, bank (yoki boshqa moliya institutlari) va sug'urta kompaniyalari birgalikda aholining ehtiyojlarini taqdim etilayotgan xizmatlar hajmiga ko'ra ham, narxiga ko'ra ham to'liqroq mos keladigan moliya mahsulotini ishlab chiqishlari va bozorga chiqarish imkoniyatiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ruyxatdan o'tgan va o'z faoliyatini amalga oshiruvchi har qanday yuridik shaxs va fuqarolik salohiyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar sug'urta agenti sifatida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Sug'urta agenti lavozimiga ishbilarmonlik qobiliyatiga va tegishli kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan jismoniy shaxslar qabul qilinadi. Sug'urta agenti fuqarolar bilan muomala qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi va sug'urta ishining asoslarini bilishi zarur. Sug'urta agenti sug'urta kompaniyasining shtatdagi xodimi bo'lishi mumkin yoki sug'urta agenti lavozimini o'rindoshlik asosida kompaniyaning har qanday xodimi amalga oshirishlari mumkin. Bunday holatda sug'urta agentining funksiyasi, huquqi va majburiyatlari sug'urtalovchining lavozim yo'riqnomalari asosida belgilanadi. Agar, sug'urta agenti shtatdan tashqari xodim bo'lsa, uning sug'urtalovchi bilan bo'ladigan o'zaro munosabati, ular o'rtasida tuziladigan agentlik bitimi bilan belgilanadi.

Sug'urta agentlariga to'lanadigan vositachilik haqi sug'urtalovchining yoki uning filialining hisob-kitob raqamiga kelib tushgan summaga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Sug'urta agenti-jismoniy shaxs bo'lgan taqdirda, unga vositachilik haqi kompaniya yoki uning filiali kassasiga naqd pul shaklida topshirilgan sug'urta mukofotiga nisbatan foizlarda hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida o'zaro xisoblashishlarning aniq tartibi sug'urta agenti va sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan topshirik shartnomasi (agentlik kelishuvi)da ko'rsatiladi. Topshiriq shartnomasi (agentlik kelishuvi)da quyidagilarni nazarda tutiladi:

- sug'urtalovchi va sug'urta agenti o'rtasida o'zaro hisoblashish tartibi;
- sug'urta mukofotlari sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish muddati;
- komission to'lovlarning hajmi, to'lash sharti va tartibi.

Sug'urta agentlari mehnatiga hak to'lash, sug'urta agenti tuzgan shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari (to'lovlari)dan komission puli shaklida amalga oshiriladi.

Komission puli miqdori sug'urta agenti tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urtalovchi hisob raqamiga tushgan sug'urta mukofotlarining (to'lovlari) 25 foizidan oshishi mumkin emas.

Sug'urta mukofotlari sug'urta agentining hisobiga kelib tushganda, sug'urta agenti ularni sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish, sug'urta mukofotlariga naqd pulda qabul qilib olganda esa sug'urta agenti ularni o'sha kunning o'zida vakolatli bankning kirim kassasiga topshirishi kerak. Agar sug'urta agenti sug'urta mukofotlarini sug'urtalovchininng hisob raqamiga o'tkazish muddatiga amal qilmasa yoki ularni asossiz ushlab tursa, o'sha davrda sug'urta hodisasi ro'y berganda, sug'urta qilinuvchining oldidagi sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlarga sug'urta agenti javobgar bo'ladi.

2.1-jadval

Sug'urta agentlariga hisoblanadigan vositachilik haqlarining miqdorlari¹⁰

Sug'urta turlari	Vositachilik Haqlari
1. Jamg'arib boriladigan bonusli uzoq muddatli hayot sug'urtasi.	5%
2. Transport vositalarini ixtiyoriy sug'urtalash.	25%
3. Yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini sug'urtalash.	25%
4. Yuridik va jismoniy shaxslar yuklarini ixtiyoriy sug'urtalash.	25%
5. Fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va tibbiy sug'urta.	25%
6. Avtomobil transporti vositalari egalarining uchinchi shaxs oldidagi javobgarligini ixtiyoriy sug'urtalash.	25%
7. Majburiy sug'urta turlari sug'urta tashkiloti sharoitidan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.	5%-20%

¹⁰ Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, agentlarning vositachilik haqlari tuzilgan sug‘urta shartnomalari turi bilan bevosita bog‘lik. Masalan, jamg‘arib boriladigan bonusli uzoq muddatli hayot sug‘urtasini «O‘zbekinvest Hayot» sug‘urta tashkiloti amalga oshiradi, 5% mikdorida belgilangan, bu aynan shu sug‘urta turining sug‘urta tashkilotiga olib keladigan daromadiga boglik. Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha vositachilik haqi asosan 10%ni tashkil etadi, ammo ba’zi sug‘urta tashkilotlari (ALFA INVEST, ASIA INSURANCE) 15% dan 20% vositachilik haqlarini to‘lash hollari kuzatilmokda. Sug‘urta agentining sug‘urtalovchi oldidagi moddiy javobgarligi alohida shartnomada qayd etiladi.

Chet mamlakatlarda, ayniqsa iqtisodi taraqqiy etgan mamlakatlar sug‘urta tizimida brokerlar muhim o‘rin egallaydi. Mustaqillik tufayli va iqtisodiyotda ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar sug‘urta sohasida ham brokerlarni faoliyat ko‘rsatishiga zamin yaratdi. Tan olish zarurki, hozirgi paytda o‘zbekistonda sug‘urta brokerlari unchalik rivojlangan emas. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, 2010 yilning 1 may holatiga mamlakatimizda 3 ta sug‘urta brokeri faoliyat yuritish uchun tegishli litsenziya olgan. Shunisi e’tiborliki, O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Sug‘urta to‘g‘risida»gi Qonunining (hozir o‘z kuchini yo‘qotgan) 7-moddasi «Sug‘urta vakillari va sug‘urta brokerlari» deb atalib, unda shunday deyilgan edi: «Sug‘urtalovchilar sug‘urta faoliyatini sug‘urta vakillari va sug‘urta brokerlari orqali amalga oshirishlari mumkin. Sug‘urta vakillari o‘zlariga berilgan vakolatlarga muvofiq sug‘urtalovchi nomidan va uning topshirig‘i asosida ish ko‘radigan yuridik shaxslardir». Sug‘urta brokerlari belgilangan tartibda tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan, sug‘urtalanuvchi topshirig‘i asosida sug‘urta bo‘yicha o‘z nomidan vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslardir. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el sug‘urta tashkilotlari nomidan sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq vositachilik faoliyatini amalga oshirishga, basharti, O‘zbekiston Respublikasi ishtirokidagi davlatlararo bitimlarda o‘zga qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunining 5-moddasida sug‘urta vositachilari, shu jumladan sug‘urta brokeri sug‘urta faoliyatining sub’ekti sifatida qayd etilgan. Shu qonunning 7-moddasi «Sug‘urta brokeri» deb ataladi. Ushbu moddada «sug‘urta brokeri» tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: «Sug‘urta qildiruvchining nomidan va topshirig‘iga binoan sug‘urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug‘urta brokeri hisoblanadi». Ta’kidlash kerakki, sug‘urta brokerining faoliyati sug‘urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo‘shib olib borilishi mumkin emas.

Xalqaro tajribaning guvohlik berishicha, sug‘urta tashkiloti va qayta sug‘urta qilish tashkiloti o‘rtasida vositachilik vazifasini bajaruvchi qayta sug‘urta brokerlari ham faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shundan kelib chiqib, «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunda qayta sug‘urta qiluvchi broker tushunchasiga alohida e’tibor berilgan. Unga muvofiq, qayta sug‘urta brokeri – o‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug‘urta brokeri hisoblanadi. Bunday brokerlarni tashkil etish qonunda nazarda tutilgan bo‘lsada, ularni faoliyatini tartibga solish bo‘yicha normativ hujjatlar ishlab chiqilmagan.

Sug‘urta brokerlari – qonunchilikda belgilangan tartibda sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini sug‘urtalanuvchi yoki sug‘urtalovchining topshirig‘i asosida o‘z nomidan olib boruvchi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar bo‘lib, bunda sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyati yuridik shaxs sifatidagi brokerning ta’sis hujjatlarida ko‘zda tutilgan bo‘lishi shart. O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy sug‘urta tashkilotlari nomidan sug‘urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanish qonun bilan taqiqlangan. Bu cheklovdan faqat O‘zbekistondan tashqariga chiqayotgan avtotransport egalarining fuqarolik javobgarligi bo‘yicha tuziladigan (“yashil karta” deb nomlanuvchi) sug‘urta shartnomalari istisno

etiladi. Bunday man etuvchi me'yorning qo'llanilishining ma'nosi shuki, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta agentlari va sug'urta brokerlari xorijiy sug'urta kompaniyalari nomidan sug'urta mahsulotlarini tarqatish bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi. Tajribaning ko'rsatishicha, shuningdek, amaldagi qonunchilik sharhidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu taqiqlash meyori qayta sug'urtalash shartnomalariga nisbatan qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik tartibotidan farqli o'laroq, xalqaro tajribada sug'urta agenti bilan sug'urta brokeri o'rtasidagi farq aniq belgilab qo'yilgan. Sug'urta agenti sug'urtalovchining vakili bo'lib hisoblanadi, uning nomidan o'ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi. Sug'urta brokeri hamisha sug'urtalanuvchining vakili bo'lib hisoblanadi, xatarni sug'urtalash uchun qabul qilinayotganda eng foydali shartlar muhokamasi chog'ida aynan uning manfaatlarini himoya qiladi.

Shunga qaramay, sug'urtalanuvchining ham, sug'urtalovchining ham manfaatlari bo'yicha vakolatli bo'lishi mumkin degan noto'g'ri tasavvur vujudga kelishi mumkin. 8-moddadagi broker maqomini belgilashda xuddi ana shunday aldamchi tasavvur singib kirib qolgan. Chindan ham, broker sug'urta kompaniyasining manfaatlari vakolatini ham olishi mumkin, faqat bu holda sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi bilan o'zaro munosabatlarga kirishayotgan, ya'ni qayta sug'urtalash munosabatlari sodir etilayotgan bo'lishi lozim. Chunki mana shu huquqiy munosabatlar tuzilishiga ko'ra, sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi tomonga o'xshab qoladi, shu bois qayta sug'urtalanuvchi deb atalishi bejiz emas. Agar broker sug'urtalanuvchilarga ularning sug'urtalovchilar bilan munosabatlari ham, qayta sug'urtalanuvchilarga ularning qayta sug'urtalovchilar bilan munosabatlarida ham xizmat ko'rsatayotgan bo'lsa, uni ko'p sohali broker yoki sug'urtalash va qayta sug'urtalash brokeri deb atashadi. Biroq bunday keng ixtisoslashuv brokerning manafaatlarni himoya qilish vakolatlari nuqtai nazaridan manfaatlarning to'qnashuviga olib kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasida brokerlarning faoliyati, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari faoliyatini litsenziyalash to'g'risida Nizom"ga asosan orqali tartibga solinadi.

Broker sug'urta sohasida vositachilik faoliyatini olib borishi munosabati bilan ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlari ko'lami nuqtai nazaridan, broker faqat vositachigina bo'lib qolmay, u sug'urtalanuvchining, qayta sug'urtalanuvchining, amaldagi O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq esa hatto sug'urtalovchining ham maslahatchisidir. Aynan u yoki bu sug'urta turi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borishi, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta dasturlarini samaradorligi nuqtai nazaridan tekshirishi va ulardan sug'urta qoplamasi jihatidan, sug'urtalash narxi jihatidan, qoplash geografiyasi jihatidan va h.k. eng optimalini tanlab olishi mumkin. U sug'urta hodisasi sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda, sug'urtalanuvchining sug'urta talablarining qondirilishida, turli xildagi ekspertizalarning o'tkazilishida ishtirok etishi mumkin, shuningdek, u talablarning qondirishini hal etish uchun talofat komissiyasining, syurveyniing va boshqa mutaxassislarning jalb etilishini tashkil etishi mumkin.

O'zbekiston milliy brokerlarining muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ular hamon vositachilik faoliyatini "sof holda" chuqur maslahat yordamini qo'shmasdan olib borayotganligi bilan belgilanadi. O'zbekistonda bo'lgani kabi, chet elda ham broker vositachilik xizmatini ko'rsatish chog'ida javobgarlikka ega bo'ladimi, yo yo'qmi degan masala munozaralarga sabab bo'lmoqda. Masalan, broker mijozning sug'urta shartnomasini yangilash shartlarini kelishishni uzoq vaqt cho'zib yubordi, bu muddat mobaynida shunday vaziyat vujudga keldiki, avvalgi sug'urta qoplamasining vaqti tugab qoldi, yangisi esa hali tuzilmagan, xuddi ana shu vaqt oralig'ida sug'urta xizmati iste'molchisiga kattagina mulkiy zarar yetkazuvchi hodisa sodir bo'ldi. Yoki, yana bir misol: sug'urtalanuvchi sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan sug'urta mukofotini sug'urtalovchi bilan keyingi hisob-kitoblarni bajarishi uchun brokerning hisob raqamiga o'tkazib berdi, broker esa hafsalasizlik qilib, mablag'larni o'z vaqtida

o'tkazmadi. Shartga binoan sug'urta shartnomasining kuchga kirish muddati sifatida sug'urta mukofotining sug'urtalovchining hisob raqamiga kelib tushgan payt belgilanganligi sababli, sug'urtalanuvchining mulkiy manfaatlari bo'yicha sug'urta himoyasi ish bermadi. Chunki sug'urta shartnomasi bilan qoplanishi zarur bo'lgan moddiy zarar xuddi ana shu davr ichida sodir bo'ldi.

Broker tor ma'noda ham, keng ma'noda ham faqat ma'naviy jihatdan javobgar bo'lishi mumkin degan fikr mavjud. Ammo bunga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Broker o'zi bilan sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida ish yuritadi, bunday shartnomada esa, brokerning shartnomaviy talablarni bajarmagani uchun javobgarligini ko'zda tutuvchi qoidalar kiritilishi mumkin. Qolaversa, vositachilik xizmatini ko'rsatuvchi broker sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi vositachi bo'lib harakat qilar ekan, bozorning malakali qatnashchisi sifatida ham javobgarlikka ega. Shunday qilib, broker o'zining sug'urta vositachiligi faoliyati davomida yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari tufayli mijozga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kasbiy javobgarligi yuzasidan ham sug'urta shartnomasi tuzishi mumkin. Lekin O'zbekistonda mana shunday javobgarlik sug'urtasi bo'yicha tavsiya etilgan limit nihoyatda past darajada bo'lib, agar broker tomonidan biron xatolikka yo'l qo'yilsa, ehtimol tutilgan zararni qoplashga etishi gumon. Ayni chog'da faqat moddiy emas, balki ma'naviy jihatdan ham g'arb davlatlaridagi sug'urta va qayta sug'urta brokerlariga yuklatilgan javobgarlik darajasi shunchalik yuqoriki, bu narsa ularning ishdagi obro'-e'tiborlariga, demakki, ularning sug'urta bozorida muvaffaqiyatli ishlashlariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shu sababli ularning ko'pchiligi mijoz ba'zi qiyinchiliklarga ko'ra vaqtinchalik navbatdagi sug'urta badalini to'lay olmaydigan holatlar uchun maxsus zahira tashkil etib qo'yadilar. Shubhasiz, bu kabi o'zaro qo'llab-quvvatlash sug'urtalanuvchi tomonidan su'iistemol qilinmaydi, chunki uning sof vijdonli sug'urtalanuvchi sifatidagi obro'-e'tiboriga putur etadi.

Qisqacha aytganda, brokerning bozorning boshqa sub'ektlari oldidagi javobgarligi borasidagi huquqiy maqomi quyidagilardan iborat. Sug'urta brokeri

topshiriq bergan sug'urtalanuvchining oldida xatarlarni ishonchli sug'urta kompaniyasida joylashtirilishi, sug'urta holati sodir bo'lgan taqdirda qoplama bilan ta'minlanishi, shuningdek, mijozga yetkazib berilayotgan mijozning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarning to'la va haqqoniyligi uchun javobgarlikka ega. Broker shuningdek, sug'urta kompaniyasi oldida ham o'zi yetkazib berishi lozim bo'lgan sug'urtalash ob'ektlari va xatar darajasi to'g'risidagi va keyingi barcha muhim o'zgarishlar to'g'risidagi axborotlarning haqqoniyligi uchun ham javobgardir. Bundan tashqari broker sug'urta nazorati idoralariga qonunchilikka binoan o'zi yetkazib berishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun ham javobgar bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxs bo'lgan brokerlar shuningdek, sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta badallarini inkassatsiya qilish va sug'urta to'lovlarini tashkil etish (sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra va uning hisobidan) amalga oshirishlari mumkin. Sug'urta brokeri sug'urtalanuvchining topshirig'iga ko'ra xatarni bitta sug'urta shartnomasi asosida bitta sug'urta tashkilotida ham, bir necha sug'urta tashkilotida ham joylashtirishi mumkin. Sug'urta brokeri mustaqil vositachi o'laroq sug'urtalovchining topshirig'iga ko'ra sug'urta shartnomasini o'z nomidan imzolash huquqiga ega emas. U amalda muayyan sug'urtalovchining (muayyan sug'urtalovchilarning) sug'urta xizmatini sotish bilan shug'ullanadi. Yoxud muayyan sug'urtalanuvchiga (muayyan sug'urtalanuvchilarga) maqbul keladigan sug'urta xizmatini tanlab beradi. Mas'uliyati cheklangan jamiyat tarzida tuzilgan brokerning korporativ soliqqa tortilishi yuridik shaxslar olgan foydani soliqqa tortishdan hech qancha farq qilmaydi. Sug'urta shartnomalari, ularning muhim shartlari, sug'urta vositachilari, ularning sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni va faoliyat tahlili bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobida ko'rib chiqqan bo'lsak, keyingi bobda sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish shart-sharoitlari bitiruv malakaviy ishning keyingi boblarida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiya ishimizning ikkinchi bobi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga yakun yasar ekanmiz, uning natijasida qo'lga kiritilgan (olingan) asosiy xulosalarni aks ettirishga harakat qilamiz. Bizning nazarimizda, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

Sug'urta qildiruvchi sug'urta qoplamasini to'lash haqidagi arizasida quyidagilarni ko'rsatadi:

- sug'urta hodisasining tavsifi va sanasi;
- sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi yuz bergandagi hatti-harakatlari;
- zarar miqdori va sug'urta qildiruvchining da'vo qilayotgan sug'urta qoplamasining miqdori, tegishli ro'yxat hamda summasi ko'rsatilgan holda;
- uchinchi shaxslardan zarar uchun olingan tovon miqdori.

Majburiy sug'urtada sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasini tuzish taklifini dalolatnomani olgandan so'ng sug'urtalovchi 30 kun ichida ikkinchi tomonga (sug'urtalanuvchi) uning shartlarini qabul qilganligi yoki dalolatnomaga qarshi ekanligi to'g'risida ma'lum qilishi shart.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta turi bo'yicha to'langan sug'urta tovonlari 2013 yil davomida 1166 nafar fuqarolarga 1769.5 mln. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103.4 foizga ortgan.

Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta turi bo'yicha 2013 yil davomida mehnat vazifalari bajarishda baxtsiz hodislar natijasida jabrlangan 98 nafar fuqarolarga 702.7 mln. so'm miqdorida sug'urta tovonlari to'lab berildi.

Ob'ektlarni davlat mablag'lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug'urta turi bo'yicha to'langan sug'urta tovonlari 2013 yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida Hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobidan qurilayotgan

Nukus tumani “Uzunko‘l” massivida qurilayotgan 1 ta shaxsiy yashash uyida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo‘yicha **3.3 mln. so‘m**, Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi “Obod suv to‘plash va tozalash inshooti” ob’ektlarida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo‘yicha **9.0 mln so‘m** miqdoridagi jami **12.3 mln. so‘m** miqdoridagi sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

Ish beruvchilarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha 2013 yil davomida mehnat vazifalari bajarishda baxtsiz hodislar natijasida jabrlangan 98 nafar fuqarolarga 702.7 mln. so‘m miqdorida sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

Ob’ektlarni davlat mablag‘lari va hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobiga barpo etishda qurilish tavakkalchiliklarini majburiy sug‘urta turi bo‘yicha to‘langan sug‘urta tovonlari 2013 yil davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida Hukumat kafolati ostidagi kreditlar hisobidan qurilayotgan Nukus tumani “Uzunko‘l” massivida qurilayotgan 1 ta shaxsiy yashash uyida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo‘yicha **3.3 mln. so‘m**, Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi “Obod suv to‘plash va tozalash inshooti” ob’ektlarida bajarilgan qurilish montaj ishlarining tabiiy ofat natijasida zararlanishi bo‘yicha **9.0 mln so‘m** miqdoridagi jami **12.3 mln. so‘m** miqdoridagi sug‘urta tovonlari to‘lab berildi.

3-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MILLIY SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTALOVCHI VA MIJOZ O'RTASIDAGI SHARTNOMA MUNOSABATLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Sug'urta da'volarni ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish

Sug'urta da'vosini ko'rib chiqish nafaqat sug'urta mahsuloti sifatini baxolovchi balki sug'urta kompaniyalariga ishonchlilik darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Sug'urtalanuvchi aniq bir mulkni yoki javobgarligini sug'urta himoyasiga taqdim etar ekan, avvalambor u ma'lum bir xodisa natijasida etkazilgan zararni tez va sifatli qoplanishi haqida muloxaza yuritishi tabiiy.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda sug'urta xodisalari sodir bo'lganda sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi yuzaga kelgan munosabatlarni tartibga solish bir qancha uzoq muddatlarga uzayib ketmoqda. Bu esa o'z navbatida mijozlarni sug'urta kompaniyasiga bo'lgan ishonchiga jiddiy ta'sir etmoqda. Sug'urta da'vosini o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlash uchun bir qancha omillar sabab bo'lmoqda.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida sug'urta da'volarini tartibga solish masalalari mavzusida ilmiy izlanish olib borishda ushbu sug'urta turi bo'yicha kamchilik va muammolar mavjudligiga amin bo'ldik.

Sug'urta xodisalarini taxlil etadigan bo'lsak eng ko'p va juda tez-tez uchraydigan asosiy xodisa bu yo'l-transport xodisasi xisoblanishi sababli, ushbu xodisa sodir bo'lganda da'vo ishlarini xal etishdagi asosiy muammolarni ko'rib chiqamiz.

1- muammo. (sug'urta xodisasini ko'rib chiqish jarayonida huquqiy yordam berish xizmatlarini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi)

Xozirda deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda ma'lum bir baxtsiz xodisa sodir bo'lganda, sug'urta kompaniyasi, o'z mijozlari nomidan barcha tashkilotlarda ularning manfaatlarini ximoya qilish xizmatini (yuridik xizmat)

yaxshilashga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu borada Respublikamizda sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat bir oz yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sezilib bormoqda.

Birgina yo'l-transport xodisasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, sug'urtalanuvchi ushbu xodisa sodir bo'lganda quyidagi tashkilotlarga murojat etishini ko'rishingiz mumkin:

- Davlat Yo'l Xarakati Xavfsizligi Xizmati;
- Ekspertiza markazlari;
- Sud organi;
- Zararni baxolovchi tashkilotlar.

Yo'l-transport xodisasi yuqoridagi organlarning deyarli barchasini ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, sug'urtalanuvchi – yuridik shaxslarning ko'p qismi o'z tashkilotlarida yuridik bo'linmalar va ma'sul shaxslarga ega, ushbu shaxslar orqali ular manfaatlarini tegishli tashkilotlarda himoya qilishlari mumkin. Ammo sug'urtalanuvchi jismoniy shaxslar yo'l-transport xodisasini ko'rib chiqish jarayonida yuridik yordamga doimo ehtiyoj sezadi, sug'urtalanuvchi-jismoniy shaxslarning yo'l-transport xodisasini ko'rib chiqish jarayonini mukammal tushunmasliklari ularni ortiqcha ovora bo'lishlariga va natijada bir qancha noroziliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lib kelmoqda.

2- muammo. (yo'l-transport xodisasi sodir etilganda qo'shimcha xizmat ko'rsatishni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi)

Transport vositalari sug'urtalashda egalarini (fuqarolik javobgarligini majburiysug'urtalashda xam) qo'shimcha xizmat ko'rsatishda yo'l-transport hodisasi sodir etilganda tez yordam xizmatini tashkillashtirish, transport vositasi yo'l-transport xodisasi oqibatida zararlanganda evakuatsiya xizmatini tashkillashtirish, tunu-kun faoliyat yurituvchi navbatchilik xizmatlarini tashkil etish kabi xizmatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

To'g'ri respublikamizda ba'zi kompaniyalarda ushbu xizmatlarni

uchratish mumkin, lekin ba'zi kompaniyalar misolida ko'radigan bo'lsak bu xizmatlarni xali etarli darajada emasligini guvoni bo'lishimiz mumkin.

Yo'l-transport-xodisasi sodir etilganda qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish mijozlar uchun anchagina qulayliklarni yuzaga keltiradi hamda shu bilan birgalikda ajoyib reklama vazifasini ham bajaradi.

3- muammo. (sug'urta voqeasi sodir etilganda xodisani rasmiylashtirishda sug'urta kompaniyasini aktiv ishtirok etmayotganligi)

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda ma'lum bir baxtsiz xodisa sodir bo'lganda, sug'urta kompaniyasi tomonidan albatta voqea joyiga tezda tashrif uyushtiriladi. Voqea joyiga tezda tashrif uyushtirish ma'lum bir ma'noda sug'urtalanuvchiga dalda va xotirjamlik vazifasini bajarsa yana boshqa bir jihati ajoyib reklama va tashviqot bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Voqea joyiga etib kelgan sug'urta kompaniyasi vakili bir qancha aniq va kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin. Jumladan:

- zararlangan ob'ekt dastlabki holatini ko'zdan kechirish va fotosuratga olish;

- xaydovchini xushyor holatda ekanligiga ishonch xosil qilish, xodisani sodir bo'lish xolati va tavsiloti haqida aniq tasavvurga ega bo'lish va hokazo.

Sug'urtalashda ko'pgina "firibgarlik" asosan xodisadan keyin malga oshiriladi. Jumladan:

- zarar miqdorini ortiqcha (bo'rtiri) ko'rsatish;
- mast holatdagi xaydovchini boshqa xaydovchiga almashtirish;
- xodisani sodir bo'lish xolati va tavsilotini o'zgartirish va xokazo.

Voqea joyiga etib kelish xizmati tashkil etilsa, ma'lum ma'noda ushbu harakatlarni oldi olingan bo'lar edi deb hisoblaymiz.

4- muammo. (sug'urta bozorida adjaster va sug'urta eksperti kabi professional kadrlarning etishmasligi)

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozoriga nazar tashlaydigan bo'lsak undagi professional ishtirokchilarning eng asosiy qismini anderrayter hamda sug'urta agentlari tashkil etmoqda. Yil yakunida umumiy sug'urta bozori

natijalarini taxlil qilsak asosiy ko'rsatkichni investitsiyaga yo'naltirilgan pul mablag'lari hamda sug'urta mukofotlari miqdori tashkil etmoqda, sug'urta qoplamasi esa past ko'rsatkichlarni tashkil qilib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki ayrim sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyati daromad olish bilan cheklanib qolmoqda, buning natijasida esa axolida sug'urtaga bo'lgan ishonch tobora pasayib bormoqda. Ushbu muammoni hal etish maqsadida sug'urta bozorini adjaster va sug'urta ekspertlari kabi mutaxassislar bilan etarli darajada ta'minlash sug'urta da'volarini ko'rib chiqish muddatining keskin qisqarishiga, aholida sug'urtaga bo'lgan ishonchni ortishiga hamda sug'urta bozori rivojlanishiga va raqobatning kuchayishiga olib keladi.

5- muammo. (sug'urta kompaniyalarda chet mamlakatlar bilan ishchi munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi)

Majburiy sug'urta turlarini amalga oshirish mobaynida sug'urta kompaniyasi tomonidan mijozlarni sug'urta shartnomasiga o'zgartirish kiritish yoki tariflarni pasaytirish orqali jalb qilib bo'lmaydi sababi ushbu sug'urta turining majburiyligi va qonun doirasida amalga oshirilishidir. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha kompaniyalar sug'urta bozoridagi raqobatni sifatli xizmat ko'rsatish va zararni o'z vaqtida qoplab berish natijasida shakillantirish mumkin.

Kompaniyalarda sug'urta bozori rivojlangan va namuna olishga loyiq bo'lgan mamlakatlar bilan ishchi munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish nafaqat ushbu sug'urta turini rivojlantirishga balki mamlakatimiz sug'urta bozorini rivojlanishiga olib keladi.

Sug'urta kompaniyalari faoliyatida sug'urta da'volarini tartibga solish mavzusida ilmiy izlanish olib borar ekanmiz umumiy sug'urta bozorida da'vo ishlarini ko'rib chiqish sifati a'lo darajada emasligini guvoxi bo'ldik. Da'vo ishini tez va sifatli ko'rib chiqish aksariyat xollardagini sug'urta kompaniyasining o'zigagina bog'liqdir.

Sug'urta bozorini rivojlanib borishi o'z navbatida sug'urta da'volari sonini ham o'sib borishini taqazo etadi.

Sug'urta xodisalari taxlil etganimizda asosiy xodisa bu yo'l-transport

xodisasi bo'lganligi sababli ushbu xodisa sodir bo'lganda da'vo ishlarini xal etishdagi asosiy muammolarni ko'rib chiqdik.

Shu sababli muammolarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi takomillashtirish usullarini ishlab chiqdik.

Sug'urta kompaniyalari kompaniya qoshida hamda viloyatlarda Assistans xizmatlari yoki "call" sentrlarni tashkil etsalar maqsadga muvofiq ish bo'lar edi.

Buning avfzalliklari nixoyatda ko'p bo'lib ular quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- Ma'lum bir yo'l-transport xodisasi sodir bo'lganda a'lo darajali xizmat ko'rsatilishini tashkil etish;

- Axolini sug'urta turlariga bo'lgan qiziqishining ortishi;

- Assistans kompaniyalari orqali xizmat ko'rsatilganda xizmat darajasini yuqoriligi va shu bilan birgalikda sug'urta kompaniyalarini doimiy xarajatlardan (ya'ni- navbatchilik xizmatini tashkil etish uchun doimiy ish o'rinlarini tashkil etish, alohida maxsus bo'linmalarni tashkil etilishi va boshqalardan) ozod etilishi;

- Sug'urta da'vosini, o'z ishining professional bo'lgan kadrlar tomonidan ko'rib chiqilishi natijasida, da'vo ishini ko'rib chiqish sifatini yuqoriligi va ko'rib chiqish muddatining keskin qisqarishi.

- Sug'urta hodisasini ko'rib chiqish jarayonida, mijozlarni mulkiy va shaxsiy manfaatlarini yuridik xizmat orqali himoyalaniishi ta'minlanadi. Yuqoridagilarni inobatga olib, ushbu xarakatlarni amalga oshirilishi o'z navbatida da'vo ishlarini ko'rib chiqish sifatini oshirish va ushbu sug'urta turini rivojlanishiga olib keladi deb xisoblaymiz.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozoriga nazar tashlaydigan bo'lsak undagi professional ishtirokchilarning eng asosiy qismini anderrayter hamda sug'urta agentlari tashkil etmoqda. Yil yakunida umumiy sug'urta bozori natijalarini taxlil qilsak asosiy ko'rsatkichni investitsiyaga yo'naltirilgan pul mablag'lari hamda sug'urta mukofotlari miqdori tashkil etmoqda, sug'urta qoplamasi esa past ko'rsatkichlarni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki

ayrim sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyati daromad olish bilan cheklanib qolmoqda, buning natijasida esa axolida sug'urtaga bo'lgan ishonch tobora pasayib bormoqda. Ushbu muammoni hal etish maqsadida sug'urta bozorini adjaster va sug'urta ekspertlari kabi mutaxassislar bilan etarli darajada ta'minlash sug'urta da'volarini ko'rib chiqish muddatining keskin qisqarishiga, aholida sug'urtaga bo'lgan ishonchni ortishiga hamda sug'urta bozori rivojlanishiga va raqobatning kuchayishiga olib keladi. Aytish kerakki, sug'urtalash yurtimiz moliya bozorini jonlantirish barobarida aholining ijtimoiy muhofazasini ham ta'minlashi lozim.

Sug'urta kompaniyalar tomonidan sug'urta bozori rivojlangan va namuna olishga loyiq bo'lgan mamlakatlar (masalan, Evropa ittifoqi davlatlari) bilan ishchi munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'yish nafaqat ushbu sug'urta turini rivojlantirishga balki mamlakatimiz sug'urta bozorini rivojlanishiga olib keladi.

Sug'urta kompaniyalar o'z mijozlari ya'ni sug'urtaga olgan transport vositalarini belgilangan muddatlarda texnik ko'rikdan o'tkazish va uni xolatini o'rganish uchun o'z ustaxonalarini tashkil qilishlari ularni zarar miqdorini kamaytirishga (riskni oldini olishga) olib keladi. Asosiy yo'l-transport hodisasi transport vositasini texnik talablarga javob bera olmasligidan kelib chiqishi va bu katta zarar keltirib chiqarishi barchamizga ma'lumdir. SHuning uchun ham sug'urta kompaniyalari o'z ustoxonalarini tashkil etishlari bu o'zlarini katta miqdordagi zararni qoplab berishdan himoyalagan yoki o'zini-o'zi sug'urtalagan bo'ladi.

Raqobatning ko'chayishi sharoitida ko'riladigan zararlarni bevosita qoplanishi sug'urta mukofotlarining sezilarli o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda zararlarni to'g'ridan-tug'ri qoplab berish mexanizmlarini joriy etilishi sug'urta tashkilotlari tomonidan yangi mijozlarni jalb qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qoplamani to'lashning ushbu usuli bir zator ustunliklarga ega:

- Sug'urtalanuvchilarni ortiqcha ovoragarchiliklardan xalos etadi;
- Sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchni znada kuchaytirish;

- Sug'urta qoplamalarini juda qisqa muddatlarda to'lash imkoniyati;
- Sug'urta bozorini yanada rivojlantirish.

Hozirda rivojlangan davlatlarning derli barchasida sug'urta qoplamasini to'lashning ushbu usuli qo'llaniladi. Bunda sug'urta kompaniyalari birlashib to'g'ridan-to'g'ri qoplamani to'lash haqida kelishuv tuzadilar. Qoplamani to'lashning ushbu usuli ayniqsa aybdor shaxs mutlaq aniq bo'lganda juda samarali natija beradi.

Sug'urta xodisasini ko'rib chiqilishida sud organi hodimlarining ishtiroki ham ta'minlanmoqda. Ta'kidlash joizki ayrim sud organi xodimlari sug'urta qonunchiligini bilmasliklari etarli darajada sug'urta bo'yicha bilim va tushunchalarga ega emasliklari turli xil tushunmovchiliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. SHu sababli sud organi xodimlarini sug'urta qonunchiligini o'rgatish va etarli darajada sug'urtaga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'z navbatida sug'urta da'volarini sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlanishi uchun xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, sug'urta xodisalari sodir bo'lganda sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi yuzaga kelgan munosabatlarni tartibga solishda ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni yaxshi yo'lga qo'yish va kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e'tibor qaratish hamda zararni to'g'ridan-to'g'ri qoplab berish tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etib, sug'urta bozorini rivojlanishiga, mamlakatimizda sug'urta turlarini ommaviylashishi va ehtiyoj sezilishiga olib keladi deb hisoblaymiz.

3.2. Milliy sug'urta bozorida sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish yo'nalishlari

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining qonunchilik asoslarini takomillashtirishda sug'urta munosabatlarining tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida har bir inson keksayganida, muhnat layoqatini yo'qotganida,

boquvchisidan mahrum bo'lganida ijtimoiy ta'minot olish huquqining kafolatlari yaratilayotganligi sug'urta bozorini isloh qilish borasida ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishining ijtimoiy ustuvor yo'nalishlari fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ishonchli tizimini, mehnatga oid munosabatlarni tartibga solish va aholi turli qatlamlarining ijtimoiy himoyasini sug'urta bozorida huquqiy ta'minlashning doirasini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, sug'urta bozorini yanada rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi. Sohoni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlar, sug'urta faoliyatiga oid qonunchilikning takomillashtirilayotgani aholining sug'urta kompaniyalariga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda. Sug'urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada rivojlantirish, sug'urta faoliyatining zamonaviy turlarini takomillashtirish va sifatini oshirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko'paytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, sohoni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan ulkan e'tibor natijasida sug'urta mukofotlari miqdori yil sayin o'rtacha 36% ga ortib bormoqda.

Sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, aholi keng qatlamlarining va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning sug'urta xizmatlaridan foydalanishini rag'batlantirish maqsadida bir qator yengilliklar yaratilgan. Xususan, davlatimiz rahbarining nomi qayd etilgan qarori asosida mol-mulkni va hayotni uzoq muddatga sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlari soliqdan ozod qilindi. Sug'urta xizmatlari sifati haqida gapirganda esa, avvalo, milliy sug'urtalovchilar tomonidan aholiga 200 dan ortiq sug'urta xizmati taklif etilayotganini aytib o'tish o'rinli. Har bir sug'urta kompaniyasi bozor talablari va amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda sifatli raqobatbardosh xizmat turlarini taklif etishga intilmoqda. Masalan, ayrim sug'urta kompaniyalari sug'urta

qoplamalarini to'lash muddatlarini qisqartirish, mijozlarning da'volarini sifatli ko'rib chiqishini ta'minlash maqsadida sug'urtalanuvchilarga texnik, yuridik va tibbiy assistans xizmatlarini taklif etmoqda.

Sug'urta mexanizmlarining iqtisodiyotdagi imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish maqsadida sohaga oid qonunchilik takomillashtirilmoqda. Natijada sug'urta xizmatlarining raqobat bozori yanada takomillashtirilib, tarmoqlar rivojlantirilmoqda. Muhimi, aholining keng qatlami sug'urta xizmatlari bilan ta'minlanmoqda. Sug'urtaning majburiy tartibda kiritilishi, bir tomondan, sohaning eng asosiy muammolaridan biri bo'lgan aholi sug'urta madaniyatining ko'tarilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yetkazilgan zararining sug'urta mexanizmi orqali kafolatli qoplanish tizimini yaratadi. Natijada jabrlanuvchilarga to'lanadigan sug'urta qoplamalarining hajmi keskin oshadi, bu esa aholi ijtimoiy himoyasining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, amalga oshirish va uni takomillashtirish sug'urta sohasidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Xususan, shaxsiy sug'urta guruhiga kiruvchi baxtsiz hodisalardan sug'urtalash hamda tibbiy sug'urta mamlakatimizda faoliyat yurituvchi deyarli barcha sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi, chunki u ham umumiy, ham hayot sug'urta tarmog'iga oiddir. Shaxsiy sug'urtani amalga oshirishdagi mavjud muammolardan biri bu-uning deyarli faqat majburiy turlari amalga oshirilayotganidir. Misol uchun, davlat majburiy sug'urtasi, chetga chiquvchilarning tibbiy sug'urtasi, yo'lovchilar sug'urtasi, og'ir mehnat sharoitida ishlovchilarni sug'urtalash va h.k. Bizning nazarimizda buning sababi shundaki, sug'urta kompaniyasi sug'urtalanuvchilarga faqat sanoqli hollardagina sug'urta ta'minotini to'laydi. Masalan, baxtsiz hodisalardan sug'urtalangan shaxsning sug'urta polisida keltirilishicha, sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida suyak sinishi, chiqishi, kuyish, la't eyish, sovuq urishi, ichki organlarning zararlanishi hamda o'lim hollaridagina u sug'urta ta'minotini olishi mumkin, hodisa natijasida shaxsning

qon bosimi ko'tarilsa, yurak xuruji paydo bo'lsa yoki infeksiyali kasallikka duchor bo'lganda esa hech qanday summa to'lanmas ekan, vaholanki bu holatlar sug'urta shartnomasida qayd etilgan hodisalar natijasida kelib chiqqan. Xulosa shuki, shaxsiy sug'urta bo'yicha shartnoma tuzgan sug'urtalanuvchilarga sug'urta hodisasi natijasida qanday holat yuzaga kelishidan qat'iy nazar sug'urta ta'minoti to'lanishi kerak, nega deganda u sug'urta polisida qayd etilgan hodisa natijasida yuz bergan. Bundan tashqari, kasalliklardan sug'urtalash bo'yicha aholiga tanishtirish, tushuntirish ishlarini olib borish kerakki, ular vositachilarning da'vatisiz, sug'urta kompaniyasiga to'liq ishongan holda shaxsiy sug'urtaga ehtiyoj sezsin.

Mulkiy sug'urtani amalga oshirish yuzasidan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish borasida ham bir talay kamchilik va muammolar mavjud, ulardan biri mulkni baholashdagi tushunmovchiliklardir. Mol-mulkni sug'urtaga tortishdan oldin u ko'rikdan o'tkaziladi va baholanadi, hozirda sug'urta kompaniyalari mulkni asl qiymatidan past baholashga urinadilar, chunki ular kamroq majburiyat uchun javobgar bo'lishni istaydilar. Shuningdek, sug'urta qoplamasini kechiktirib to'lash, haddan ziyod hujjatlarni talab qilish, sug'urta hodisasiga guvoh bo'lgan shaxsni talab qilish, sug'urta hodisasi ro'y berganligi haqidagi xabar biroz kech etib kelganligini bahona qilish holatlari kuzatilmoqda, xullas qanday yo'l bilan bo'lsa ham sug'urta qoplamasini to'lamaslik yoki kam miqdorda to'lashga urinmoqdalar. 2007 yildan e'tiboran, Soliq Kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 10 apreldagi 618-sonli qaroriga muvofiq, mol-mulk sug'urtasiga oid sug'urta mukofotlari yuridik shaxslarning foyda solig'idan va jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod qilindi. Bunday imtiyozning berilishi mol-mulk sug'urtasining ixtiyoriy ravishda hamda keng ko'lamda amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, qanday sug'urta turi bo'lishidan qat'iy nazar, aholining qiziqishini uyg'otish, ishonchini qozonish maqsadida imtiyozlar yaratish, yengilliklar berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Javobgarlik sug'urtasi chet davlatlarda shunday ommalashganki, deyarli hech bir kasb egasi, umuman uchinchi shaxsga xizmat ko'rsatuvchilar sug'urtalanmay turib faoliyatni boshlamaydilar. Bu sug'urta turlari bo'yicha mamlakatimizdagi mavjud muammolarni ishning 3.1-qismida muhokama qilgandik. Bizning fikrimizcha, shifokor hamda quruvchilarning kasbiy javobgarligini majburiy sug'urtalash zarur, chunki har ikkala kasb egasida uchinchi shaxsga zarar yetkazish xavfi yuqori. Kreditlarning qaytmasligini sug'urtalash bu guruhning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi, chunki u majburiy tarzda amalga oshiriladi. Kreditlarni sug'urtalashda bankning o'zi sug'urta kompaniyasini tanlaydi, demak arzon tarifga, keng ko'lamli sug'urta xizmatlariga hamda ishonchli kafolatga ega kompaniya bu sug'urta turini qo'llaydi.

Sug'urta kompaniyalarining ko'pchiligi bugungi kunda universal xizmat ko'rsatadi, ya'ni deyarli barcha sug'urta klasslari bo'yicha. Lekin sug'urta kompaniyalari hisobotlariga nazar tashlasak, 15, 17-klasslar bo'yicha shartnomalarning kam hajmda tuzilganligiga guvoh bo'lamiz, vaholanki ular ushbu klasslar bo'yicha litsenziyaga ega. Bizning fikrimizcha, bu klasslar bo'yicha sug'urtalash tartibi ishlab chiqilmagan yoki tarif stavkalari juda yuqori. Sug'urta kompaniyalari ko'pincha shaxsiy, javobgarlik sug'urta turlari bo'yicha reklama bukletlarini nashr ettirib, uni ommaga namoyish qiladilar, lekin biz yuqorida sanagan sug'urta turlari bo'yicha xalqda hech qanday tushuncha yo'q, balki bunday sug'urta turlari borligini bilmasalar ham kerak. 16-klass, ya'ni moliyaviy tavakkalchilik sug'urtasi iqtisodiyoti rivojlanish yo'lidan borayotgan davlat uchun juda zarur hisoblanadi, har qanday xo'jalik yurituvchi sub'ektda kutilgan natijani ololmaslik xavfi yuqori, shuning uchun ham bu sug'urta turi bilan sug'urtalanmoqchi bo'lgan potensial mijozlar soni ko'p. Lekin muammo shundaki, aksariyat sug'urta kompaniyalari o'z moliyaviy barqarorligini o'ylab bu sug'urta turini amalga oshirishdan turli sabablarni keltirib bosh tortadilar.

Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari quyidagilar:

1. Sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish jarayoni aholi ehtiyojlariga mos keluvchi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishdan boshlanadi, shunday ekan, avvalo mahsulotning sifatli, qulay narxlarda va asosiysi, potentsial sug'urtalanuvchilarning talabi asosida yaratilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish jarayoni ishlab chiqilgan sug'urta mahsulotini bozorda sotish bilan davom ettiriladi, demak, uni sug'urta bozorida joylashtirish va marketing asosida mijozlarni jalb etish, mahsulotning ijtimoiy hayotdagi zarurligini anglatish, uning natijasida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan katta xarajatlarning oldi olinishini turli aniq faktlar (statistik ma'lumotlar) yordamida tushuntirish zarur.

3. Sug'urtalanuvchilar o'zlari uchun ma'lum sug'urta turini tanlaganlaridan so'ng har ikki tomon o'rtasida shartnoma tuziladi, shartnoma shartlarining, tartib-qoidalarining oddiyligi, mijoz uchun qulayligi, shuningdek mijoz uchun muhim hisoblangan tarif stavkalarining soddalashtirilganligi sug'urta operatsiyalarining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. Sug'urta xizmatlarini internet orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish, bu chet mamlakatlardan mijozlar jalb qilish, xorij sug'urtalovchilari bilan hamkorlik qilish, ular bilan qayta sug'urtalash shartnomalarini tuzish imkonini yaratadi.

5. Sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlardan muhimi bu sug'urta da'volarining ijobiy tomonga hal etilishi hisoblanadi. Sug'urtalanuvchining da'vo arizasini qisqa vaqt ichida ko'rib chiqish, talab etiladigan sug'urta hodisasi ro'y berganligini tasdiqlovchi hujjatlar sonini kamaytirish (hodisa bo'yicha tegishli organlarning xulosalari kifoya), agar ro'y bergan hodisa sug'urta hodisasi deb tan olinmasa uni mijozga aniq faktlar bilan tushuntirish zarur, zero mijozda «to'lab bermadi», «sug'urtaga ishonmaslik kerak ekan», «shuncha yugurganlarim zoe ketdi» kabi fikrlar paydo bo'lmasin. Agar sug'urtalovchi sug'urta qoplamasini to'lashga qaror qilsa,

shartnomada belgilangan muddatda hech qanday kechiktirishlarsiz to'lash zarur, shunda sug'urta kompaniyasining asl mijozlari soni oshadi.

6. Aholining sug'urta madaniyati darajasini oshirish yo'llari quyidagilar, ya'ni ularga sug'urtaning asl mohiyatini ochib berish, u qachon zaruratga aylanishini tushuntirish, uning afzal tomonlarini ko'rsatish, namoyon qilish, har qadamda xavf-xatarning mavjudligi, uning qachon sodir bo'lishi noma'lumligi va aynan shu davrda sug'urtaning ahamiyati beqiyosligini anglatish hisoblanadi.

7. Sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarning samarali bo'lishida sug'urta kompaniyalarining shaffofligini saqlab qolish, ya'ni potentsial mijozlar sug'urta kompaniyalarining faoliyat yo'nalishlari, moliyaviy barqarorligi, to'lovga layoqatliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga hech to'sqinliksiz ega bo'lishlari muhim hisoblanadi.

8. Sug'urta bozori infrastruktura sub'ektlarining faoliyatini samarali tashkil etish zarur, natijada sug'urta kompaniyalarining sifatli xizmat ko'rsatishlariga shart-sharoit yaratilsin.

9. Sug'urta xizmatlarining mamlakatimizning eng chekka hududlargacha yetib borishini ta'minlash, u yerlik aholi uchun sug'urtaning mohiyatini ochib beruvchi taqdimotlar namoyish etish.

10. Mamlakatimizda sug'urta xizmatlarini ko'rsatish rivojlanish bosqichida turgan bir davrda sug'urta sohasida qilinadigan reklamalar faqat o'z kompaniyasini targ'ib qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki aholining sug'urta madaniyati oshishiga, sug'urtaning ijtimoiy vazifasini ochib berishga ham o'z hissasini qo'shishi zarur.

11. Sug'urta kompaniyalari tomonidan ommaviy standart hisoblanuvchi sug'urta xizmatlarini sotishda tijorat banklari, pochta bo'limlari bilan istiqbolli hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlarini kuchaytirish.

12. Mamlakatimizda qaror topayotgan sug'urta munosabatlarini yanada rivojlantirish maqsadida sug'urta marketingi faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalarni kadrlar bilan ta'minlash masalasini davlat darajasida tegishli qarorlarni qabul qilish orqali hal qilish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda sugʻurta bozorining tubdan isloh qilinib, izchil rivojlantirilishi aholining sugʻurtaga boʻlgan qiziqishi ortishi va sugʻurta madaniyati yuksalishida muhim omil boʻlmoqda. Ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan majburiy sugʻurta turlari joriy qilinayotgan bu boradagi ishlarni yangi bosqichga koʻtaradi va sugʻurta tashkilotlarining kapitallashuv darajasini yanada oshiradi. Bu iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalar hajmi va miqdori koʻpayishiga, pirovavrdida xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Uchinchi bob boʻyicha xulosalar

Dissertatsiya ishimizning uchinchi bobi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga yakun yasar ekanmiz, uning natijasida qoʻlga kiritilgan (olingan) asosiy xulosalarni aks ettirishga harakat qilamiz. Bizning nazarimizda, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- transport vositalari sugʻurtalashda egalarini (fuqarolik javobgarligini majburiy sugʻurtalashda xam) qoʻshimcha xizmat koʻrsatishda yoʻl-transport hodisasi sodir etilganda tez yordam xizmatini tashkillashtirish, transport vositasi yoʻl-transport xodisasi oqibatida zararlanganda evakuatsiya xizmatini tashkillashtirish, tunu-kun faoliyat yurituvchi navbatchilik xizmatlarini tashkil etish kabi xizmatlarni sanab oʻtishimiz mumkin;

- deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda maʼlum bir baxtsiz xodisa sodir boʻlganda, sugʻurta kompaniyasi tomonidan albatta voqea joyiga tezda tashrif uyushtiriladi. Voqea joyiga tezda tashrif uyushtirish maʼlum bir maʼnoda sugʻurtalanuvchiga dalda va xotirjamlik vazifasini bajarsa yana boshqa bir jihati ajoyib reklama va tashviqot boʻlib xizmat qilishi mumkin;

- hozirgi kunda Oʻzbekiston sugʻurta bozoriga nazar tashlaydigan boʻlsak undagi professional ishtirokchilarning eng asosiy qismini anderryter hamda sugʻurta agentlari tashkil etmoqda. Yil yakunida umumiy sugʻurta bozori natijalarini taxlil qilsak asosiy koʻrsatkichni investitsiyaga yoʻnaltirilgan pul

mablagʻlari hamda sugʻurta mukofotlari miqdori tashkil etmoqda, sugʻurta qoplamasi esa past koʻrsatkichlarni tashkil qilib bormoqda;

- majburiy sugʻurta turlarini amalga oshirish mobaynida sugʻurta kompaniyasi tomonidan mijozlarni sugʻurta shartnomasiga oʻzgartirish kiritish yoki tariflarni pasaytirish orqali jalb qilib boʻlmaydi sababi ushbu sugʻurta turining majburiyligi va qonun doirasida amalga oshirilishidir. Ushbu sugʻurta turlari boʻyicha kompaniyalar sugʻurta bozoridagi raqobatni sifatli xizmat koʻrsatish va zararni oʻz vaqtida qoplab berish natijasida shakillantirish mumkin;

- sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi oʻrtasidagi munosabatlarni toʻgʻri tashkil etish, amalga oshirish va uni takomillashtirish sugʻurta sohasidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

XULOSA

Dissertatsiyamizning ushbu qismida sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish tartibini takomillashtirish masalalari xususida amalga oshirilgan tadqiqotlarimizga yakun yasab, ularni amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilgan asosiy xulosalar hamda ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni, qisqacha, aks ettirishga harakat qilamiz. Ularning eng asosiylari, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Mamlakatimiz sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilar sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishda aholining ehtiyojlarini hamda ularning daromadlilik darajasini to'liq hisobga olmaydilar va natijada uni sotish jarayoni qiyin kechadi yoki uzoq muddatga cho'ziladi.

2. Milliy sug'urta bozorida marketing va reklamaning sust olib borilishi.

3. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishda informatsion texnologiyalardan foydalanish sust kechmoqda, vaholanki sug'urta sohasi rivojlangan davlatlarda internet-sug'urta yaxshi yo'lga qo'yilgan va samarali faoliyat ko'rsatadi. Shuningdek, sohada reklama xizmatidan kam foydalaniladi, matbuotda yoki televideniada sug'urtaning ahamiyatini ochib beruvchi masalalar muhokama etilmaydi, sababi u moliyaviy mablag'larni talab etadi.

4. Sug'urta hodisalari ro'y berganda sug'urta kompaniyalari tomonidan zararlarni qoplashning operativ amalga oshirmasligi.

5. Sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni samarali amalga oshirishning qulay usuli –bu sug'urta vositachilarining xizmatidan foydalanish hisoblanadi, chunki agentlar jarayonni tezlashtirish, ya'ni bir vaqtning o'zida bir necha o'n kishilik jamoani sug'urta kompaniyasi faoliyati va sohaga oid ma'lumotlarni taqdim etgan holda jalb qilib, ular bilan ommaviy tarzda shartnoma tuzadi, bu esa sug'urta kompaniyasi portfeli shakllanishining manbai hisoblanadi. Bugungi kunda sug'urta agentlari o'z faoliyatini to'liq bajarmayaptilar, ya'ni rahbar bilan kelishgan holda sug'urta mahsulotini sotib ketmoqdalar, rahbarning qo'l ostidagi xodimlar esa «majburiy» ravishda sug'urta mukofotini to'lamoqdalar, aslida esa, sug'urta mahsulotlarini taklif

qilayotganda uning zarurligini, hayotimizdagi ahamiyatini anglatish, sug'urta shartnomasi shartlari, qoidalari bilan to'liq tanishtirish va bu ishlarni so'zsiz barcha ishchi-xodimlar orasida bajarish zarur.

Yuqorida qayd etilgan xulosalarga tayangan holda mamlakatimiz sug'urta bozorida sug'urtalovchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi takliflarni kiritamiz.

1. Respublika sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari o'zlari taqdim etayotgan barcha xizmatlar ya'ni sug'urta turlari bo'yicha shartnomalari Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan talab va normativlar asosida tuziladi. Shartnomada har ikki tomonning huquq va majburiyatli to'liq va aniq belgilangan bo'lishi lozim. Sug'urtalovchilar tomonidan shartnomalarning sug'urta qildiruvchilar manfaatlarini umuman inobatga olmagan holda haqqoniy bo'lmagan holda tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Biz bu borada, davlat inspeksiyasi tomonidan yana bir bor barcha sug'urta kompaniyalari sug'urta shartnomalarning holati va ularning qonunchilikka muvofiq ekanligini tekshirishlari tavsiya etiladi.

2. Sug'urta mahsulotini sifatli va mukammal ishlab chiqish zarur. Uni ishlab chiqishda avvalo aholining ehtiyojlari, qiziqishlari, daromadliligi kabi omillarni hisobga olish zarur. Sug'urta mahsuloti shunday ishlab chiqilishi kerakki, uni aholiga taklif qilganda mavhumlik sezilmasligi lozim, ya'ni u hayotiy ehtiyojlarga mos kelishi, har taraflama ishonchli bo'lishi va unga nisbatan zarurat sezilishi hamda uning amalga oshirilish tartibi sodda va tushunarli bo'lishi lozim. Bundan tashqari, mavjud sug'urta mahsulotlariga qo'shimcha ravishda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va sotishning zamonaviy usullarini qo'llash zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston" 2012 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi T: "Sharq" 2010 yil
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi T: "Sharq" 2012 yil
4. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5 aprel 2002 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
5. O'zbekiston Respublikasi "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" gi qonuni, 21 fevral 2008 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
6. O'zbekiston Respublikasi "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonuni, 17 aprel 2009 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan)
7. O'zbekiston Respublikasining "Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida"gi Qonuni, 2000-yil 25-may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan)

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-3022-son Farmoni "Xalq so'zi" 2002 yil 1 fevral
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi "Sug'urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-618-son qarori "Xalq so'zi" 2007 yil 11 aprel
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-872-son qarori "Xalq so'zi" 2008 yil 22 may

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi “Sug‘urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1544-son qarori
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi – “Xalq so‘zi” , 17-yanvar 2015-yil, 11-son
13. “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrda 413-sonli Qarori
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 8-iyuldagi 286-sonli qariga 2-ilova “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi to‘g‘risida”gi Nizom (o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan)
14. “Sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilar to‘lov qobiliyati to‘g‘risida” gi Nizom 2008 yil 22 aprel
15. “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida” gi Nizom

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

16. I.A.Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” T:O‘zbekiston 1995
17. I.A.Karimov “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi” T:O‘zbekiston 1997
18. I.A.Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li” T:O‘zbekiston 1999
19. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” T:O‘zbekiston 1999
20. I.A.Karimov “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” T:O‘zbekiston 2009
21. I.A.Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T:O‘zbekiston 2011

VI. Asosiy adabiyotlar

22. В.В.Шахов «Введение в страхование» - Москва, «Финансы и статистика», 1999 г.
23. М.А.Зайцева, Л.Н.Литвинова «Страховое дело» - Минск, БГЭУ, 2001 г.
24. А.А.Гвозденко «Основы страхования» - Москва, «Финансы и статистика», 2000 г.
25. С.А.Чудинов – «Налогообложения страховой деятельности в ведущих странах ЕС» - «Страховое дело», - 2010 год
26. Н.П.Кузнецова, И.С.Меркурева, «Международный опыт регулирования страховой деятельности», Вестник СПбГУ. Сер 5. 2006 г. Выпуск 1.
27. М.А.Зайцева, Л.Н.Литвинова, «Страховое дело», Минск БГЭУ, 2001 г.
28. Т.А.Федорова, «Основы страховой деятельности», Москва, БЕК – 2002 г. с.159-163
29. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Страхование. Учебник для вузов -СПб.: Питер, 2003.
30. Гинзбург А.И. Страхование. - СПб: Питер, 2002.
31. Шахов В.В. Страхование. Учебник для вузов.-М.: ЮНИТИ, 2004. -311 с
32. Гвозденко А.А. Основы страхования: Учебник. - 2-е изд., перераб. и доп. -М.: Финансы и статистика, 2004.
33. Годин А.М., Фрумина СВ. Страхование: учебник. - М.: изд-во «Дашков и К», 2009.
34. Гребенщиков Э.С. Финансовый кризис в мире: последствия и уроки для страхового бизнеса, регуляторов и страхователей// Финансы, №3 2009 г.
35. Адамчук Н.Г., Юлдашева Р.Т. Обзор страховых рынков ведущих стран мира, (серия «Мировые страховые рынки»). - М.: Анкил, 2009
36. Архипов А.П., Гомелля В.Б. Основы страхового дела. Учебное пособие. -М.:МаркетДС, 2009
37. Ермасов СВ., Ермасова Н.Б. Страхование: Учеб. пособие для вузов. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.

38. Корнилов И.Л. Основы страховой математики: Учеб. пособие для вузов. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.
39. Романова М.В. Налогообложение страховой деятельности. /Под ред. В.В.Шахова.-М.: Финансы и статистика, 2007
40. Сплетуков Ю.А., Дюжиков Е.Ф. Страхование: Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2008. (Серия "Высшее образование").
41. Страхование /под ред. Т.А.Федоровой. - М.: "Экономистъ", 2008.
42. Страхование: принципы и практика / Составитель Дэвид Бланд: Пер. с англ. - М.: Финансы и статистика, 2008.
43. Теория и практика страхования. Учебное пособие. - М.: Издательский центр «Анкил», 2007
44. Федоров Т.А. Страхование в условиях рыночной экономики: принципы и практика. Учебное пособие. Изд-во СПбУЭФ, 2009
45. Яковлева Т.А., Шевченко О.Ю. Страхование: Учеб. пособие - М.: Юрист, 2008
46. Шахов В.В., Миллерман А.С., Медведев В.Г. Теория и управление рисками в страховании. - М.: Финансы и статистика, 2008.
47. Юлдашев Р. Страховой бизнес. Словарь. - М.: Анкил, 2010 Г.
- 48.Black K. and H. Skipper "Insurance" USA 2008
- 49.Michael R. "Insurance" Prentice Hall 2009
- 50.Arrow, Kenneth J. "Reinsurance" New York: Wiley 2009
- 51.Ambrose, Stephen E. "Insurance and reinsurance" New York: Simon 2010
- 52.Brockway, George P. "Risk and Insurance" London: press 2010
- 53.Adaham W. "Insurance business" India 2008
54. X.M.Shennayev "O'zbekiston sug'urta bozori"- Toshkent – "Iqtisod-Moliya". 2013 y.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

55. Статья - “Зарубежный опыт налогообложения страховой деятельности и возможность его применения в отечественной практике” - «Российское предпринимательство», № 8 Вып. 2 (190) за 2011 год,
56. Фогельсон Ю.Б. Введение в страховое право. Просто о сложном. Издание второе.-М.: БЕК, 2001
57. Юлдашев Р. Страховой бизнес. Словарь. - М.: Анкил, 2002 Г.
58. Теория и практика страхования. Учебное пособие. - М.: Издательский центр «Анкил», 2003.
59. Сплетухов Ю.А. Страхование ответственности. - М: Аудит, 2005.
60. Сухов В.А. “Страховой рынок России” М:Анкил 2008

VI.Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

61. Boymurodov T.M. “Sug‘urta tizimida marketing va monitoring dasturlarini ishlab chiqish”. O‘zbekiston axborotnomasi 2001
62. Imomov Sh. “Sug‘urta –iqtisodiyotni himoyalash va rivojlantirishning muhim omili” xalq so‘zi 2002 yil 27 noyabr
63. Mirsodiqov M. “Современное состояние и тенденции развития страхового рынка Узбекистана”
64. Ikromov O.G. Shennayev X. “O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozori:Rivojlanish tandensiyalari va istiqbollari” moliya jurnali 2008 yil, 1-son
65. Xolikov U. “O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalari xalqaro sug‘urta bozori ishtirokchilari sifatida” Barkamol avlodni ish bilan ta‘minlash davr talabi Ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari 2009 yil 15 dekabr
66. Xolikov U. “Xalqaro sug‘urta bozoriga jahon moliyaviy Iqtisodiy inqirozining ta’siri” Byudjet tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi 2010 yil mart
67. Olimjon Ikromovning 2013 yil 24-28 aprel Xalqaro Investitsiya-Moliya forumidagi taqdimot materiallari

68. Go'zal Anarqulovning 2013 yil 24-28 aprel Xalqaro Investitsiya-Moliya forumidagi taqdimot materiallari

69. 2013 yil 24-28 aprel Xalqaro Investitsiya-Moliya forumi qatnashchisi Rossiyaning "YUNITY RE" qayta sug'urta kompaniyasi rahbari Dmitriy Vaninning taqdimot materiallari

VII. Internet saytlari

70. [http: // www.mf.uz](http://www.mf.uz)

71. [http: // www.gov.uz](http://www.gov.uz)

72. [http: // www.lex.uz](http://www.lex.uz)

73. [http: // www.saipro.uz](http://www.saipro.uz)

74. [http: // www. uzreport.com](http://www.uzreport.com)

75. [http: // www.strahovka.ru](http://www.strahovka.ru)

76. [http: // www.uzbekinvest.uz](http://www.uzbekinvest.uz)

77. [http: // www.mvd.uz](http://www.mvd.uz)